

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**TARJIMONLIK FAKULTETI  
ARAB TILI NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**

**G.Egamnazarova**

**Mavzu: ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDA SO‘Z TUZILISHI  
TIPOLOGIYASI  
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: Yuldoshev A.**

**BMI Arab tili nazariyasi va amaliyoti**

**kafedrasida muhokama**

**qilindi va himoyaga tavsiya etildi.**

**Bayonnoma №-----**

**2015 yil”-----“ may**

**Kafedra mudiri**

**f.f.n. A.Turobov**

**SAMARQAND – 2015**

## REJA:

### KIRISH

**ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....3**

**I BOB SO‘Z VA UNING TUZILISHI.....6**

**1.1.Sodda so‘zlar tuzilishi.....6**

**1.2.So‘z yasash modellari tahlili.....25**

**II BOB QO‘SHMA SO‘ZLAR TUZILISHI TIPOLOGIYASI.....36**

**2.1.Qo‘shma so‘zning tarkibiy qismlari tahlili.....36**

**2.2.So‘z tabiatining murakkabligi tahlili.....52**

**UMUMIY XULOSALAR.....55**

**ADABIYOTLAR.....57**

## ISHNING UMUMIY TAVSIFI

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlashi, jamiyat oldiga ulkan vazifalarni belgilab berdi.

Bu ma’noda ilm-fan tillarni muvaffaqiyatli o‘rganishda ham, ta’limni rivojlantirish hamda umuman kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida ham, eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek:« Yangi jamiyat qurish yo‘lida xalqimizning ma’naviy yuksalishini o‘z oldimizga qo‘ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelganini va bugun ham e’tiborimiz markazida turganini ta’kidlash lozim»(1:48).

XXI asr tilshunoslik fani til birliklarini o‘rganishga integrasiyalashgan yondoshuv doirasida lingvistik muammolarni kompleks tadqiq etilishi bilan ajralib turadi. Zamonaviy anglistika ingliz tili grammatik tuzilishini rivojlanish tarixini yoritish borasida ham e’tiborga molik darajada to‘plangan tajribaga ega. Bu soxada tugatilgan mukammal darajada bo‘lmasada, jiddiy tadqiqotlar, jumladan, ingliz tilining leksikologiyasi rivoji tarixiga oid izlanishlar, mavjud. Aytilganlardan kelib chiqqan holda, ta’kidlash lozimki, bu borada zamonaviy tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar tamoyillari rivoji bilan bog‘liq bir qator muammolar yechilmay qolayotganligi ayon bo‘lib qoldi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi yanada yirik leksikologik strukturalarni hosil qilishda til birliklarining sistem xossalarining, qo‘llanish imkoniyatlarini va nomenklaturasi rivoji tabiatini yoritib berishning keskin ehtiyoji bilan belgilanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z tuzilishi tipologiyasini o‘rganish muhimdir, zero, busiz ingliz va o‘zbek tilida kechayotgan jarayonlar va tamoyillar, valentlilikning roli to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qilish mumkin emas.

Bunda bir tomondan, uning grammatik xossalari, muayyan soʻz turkumi, grammatik kategoriyalarni ifodalovchi shakllari mavjudligi, gap boʻlagi sifatidagi vazifasi va boshqalar bilan, ikkinchi tomondan – uning maʼno tuzilishiga kiruvchi mazmun tipi va xarakteri bilan belgilanadi. Tildagi soʻz tuzilishi hosil qilinishi jarayonini oʻrganish uchun, soʻzning asosiy til birligi sifatida maʼlum xususiyatlaridan tashqari, yana bir muhim xossa – nutq zanjirida boshqa soʻzlar bilan tanlagan holda birikish imkoniyati, yaʼni leksik valentligini ham inobatga olish muhimdir. Bunda valentlikning birikish xususiyatiga munosabati imkoniyatning amalga oshishga boʻlgan munosabati sifatida qaralmogʻi lozim(2:196).

Tildan tashqari omillar taʼsiri va konseptual qadriyatlarning oʻzgarishi, shuningdek, kommunikativ intensiya (til tuzilishida faollashadigan) rivoji bogʻliq masalalarni oʻrganish, lingvistlar qiziqishining strukturalarni oʻrganishdan koʻra lisoniy unsurlarning kognitiv funksiyalarini oʻrganishga qaratilgani bilan ham yanada dolzarbdir.

**Muammoning oʻrganilish darajasi.** Turli tipdagi soʻz tuzilishi , tarkibi va funksional xususiyatlari zamonaviy tilshunoslik fanida Belova A.G., M Mamatxunova D.Q, Nosirova M.A., Belkin V.M., Imomxoʻjaev O., Ibrohimov N.I., Yusupov M., Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh., Rojdestvenskiy Yu.V., Sulaymonova F., Filshtinskiy I.M., Shifdar B.Ya., Xasanov A.A., Shagal V.Z, Xasanov M., Abzalov M., Baranov X.K, Barisov V.M. kabi olimlar tomonidan xususiy muammo sifatida keng ishlangan.

**Tadqiqot maqsadi:** oʻzbek va ingliz tilida soʻz tuzilishi , semantik va funksional oʻziga xosliklarini ularning valentligi asosida tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqot predmeti** sifatida ishning imkoniyatidan kelib chiqib tilda soʻz tuzilishi, shuningdek ingliz va oʻzbek tillarida semantik-funksional xususiyatlari, shuningdek, ularning leksikologik nuqtai nazaridan rivojlanishi belgilandi.

**Tadqiqotning metodologik asosi** boʻlib Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning ijtimoiy va til bunyodkorligi soxasiga oid asarlari, jahon

tilshunosligida Belova A.G., M Mamatxunova D.Q, Nosirova M.A., Belkin V.M., Imomxo‘jaev O., Ibrohimov N.I., Yusupov M., Kovalev A.A., Sharbatov G.SH., Rojdestvenskiy Yu.V., Sulaymonova F., Filshinskiy I.M., Shifdar B.YA., Xasanov A.A., Shagal V.Z, Xasanov M., Abzalov M., Baranov X.K, Barisov V.M. kabi olimlarning fundamental asarlar xizmat qildi.

**Tadqiqot metodlari:** BMIning metodologik asosini borliqning eng muhim uzvlaridan biri bo‘lgan til tizimi va uni tashkil etuvchi unsurlarning doimiy dialektik taraqqiyotda ekanligini aks ettiruvchi falsafiy qarashlar, til va nutq hodisalarini izchil farqlashga asoslangan sistem-struktur tavsifga doir ilmiy-nazariy qarashlar, til birliklarining komponent va qiyosiy-tipologik tavsiflash usullari tashkil etadi.

**Ishning jamoatchilik sinovidan o‘tishi.** BMI Samarqand davlat chet tillar instituti arab tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası 12-may 2015-yil 16-majlisida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan SamDCHTI talabalarining an’anaviy ilmiy konferensiyasida (2015-y.) ma’ruza qilingan.

Ishning tuzilishi. BMI kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 59 bet.

## **I BOB. SO‘Z VA UNING TUZILISHI**

### **1.1.Sodda so‘zlar tuzilishi**

So‘zlar tuzilishiga ko‘ra sodda yoki qo‘shma bo‘ladi. Bu turlarning har biri o‘z ichida yana turlicha tasnif qilinadi. So‘zning bunday struktural tiplari — so‘z yasashning yo‘llariga ko‘ra turlari bo‘lib, ularning leksik-semantik grammatik xususiyatlari, modellari xilma-xildir.

Sodda so‘zlar ikki xil: tub so‘zlar (yasalmagan so‘zlar) va yasama so‘zlar (affiks orqali hosil bo‘lgan so‘zlar).

Insonlarning o‘zaro aloqa - aralashuvida, fikrlashuvida, eng muhim vazifani gap va so‘z bajaradi: fikrni gap ifoda qiladi, gap esa so‘zlardan tuziladi, uning materiali so‘zdir. Demak so‘z grammatik qurilishning bazasi bo‘lib, u tilning leksikada ham, grammatikada ham eng zarur asosiy birligidir. So‘zlar yakka xolda predmet, hodisa, belgi kabilarni bildiradi (shular xaqidagi tushunchani ifodalaydi), shularni ataydi (bu tilning nominativ vazifasi), lekin fikr bayon qilishda u gap tarkibida bo‘ladi: so‘z gap tarkibida, nutqda tilning fikr bayon qilish vositalari sistemasidagi o‘z vazifasini bajaradi, shu bilan birga, ma‘nosi yana ham oydinlashadi (masalan, polisemantik so‘z bo‘lsa, shu qo‘shilishda o‘sha ma‘nolardan bittasini ko‘rsatadi). Til, nominativ va kommunikativ vazifalardan tashqari, ekspressiv vazifaga ham ega. So‘zning bu vazifani bajarishda ham ma‘lum roli bor(3:53).

So‘z obyektiv borliqdagi predmet yo hodisalar haqidagi tushunchaning tovush vositasi bilan ifodalanishidir; bu tushuncha predmet yo hodisaning ongda aks etishidir. Aniqki, so‘z ma‘nosining asosi ongimizdagi tushunchalar, demak voqelikdagi hodisalardir: so‘z orqali borliqning turli tomonlari, kishilik jamiyatining, insonning turmush tajribalari aks ettiriladi. So‘z, ma‘no ifodalash bilan birga, emosiyalarni, his-tuyg‘ularni bildirishi ham mumkin (undovlar shu xususiyatga ega). Kelib chiqadiki, so‘z tushun-

chani ifodalaydi yo his-tuyg'ularni bildiradi. Bularning hammasi so'zning ma'no tomonidir («Ma'no» termini keng bo'lib, tushunchani ham, his-tuyg'uni ham o'z ichiga oladi). So'z yakka holda bildirgan ma'nosidan tashqari, qo'llanishda, nutq ichida, ko'chgan ma'noda ishlatilgan bo'lishi, emosional bo'yoqqa ega bo'lishi ham mumkin. Masalan, bolam so'zi o'rniga bo'tam, qo'zim, chirog'im deyish; jo'jasi ko'p (bolasi ko'p degan ma'noda), bu bola — xo'roz (mard ma'nosida, bu ma'noda ba'zan qo'chqor so'zi ham ishlatiladi), tirnoq (farzand ma'nosida) kabi qo'llashlar: boshlarim, bolaginam, otajon — jon ota, otajonim — jonim otam so'zlarining ma'nosi va turli yo'llar bilan ifodalangan emosional bo'yog'i. Қуйидаги мисоллар орқали ўзлашган арабча сўзларнинг тузилишини кузатишимиз мумкин.

كُتِبَ — KaTaBa—u shunday deb yozgan edi

اُكْتُبَ — maKTuBu—yozish

كِتَابَ — KiTa: B<sup>un</sup>-kitob

كُتُبَ — KuTuB<sup>un</sup>—kitoblar

كَاتِبَ — Ka: TiB<sup>un</sup>—yozuvchi

كُتَّابَ — KuTTa: B<sup>un</sup>—yozuvchilar

مَكْتَبَةً — maKTaBat<sup>un</sup>—kutubxona

Anglashiladiki, so'z ma'nosi butun bir sistema bo'lib, u qo'shimcha ma'nolarni ham, emosional-stilistik jilolarni ham o'z ichiga oladi. Bu hodisa so'zning ma'no tuzilishi deyiladi. So'zning ma'no tuzilishi shu so'z ifodalaydigan ma'nolarning yig'indisi, so'zning butun ma'no sistemasidir. So'zning tushuncha va emosiyalarni tovush vositasi bilan ifodalashi unda fonetik tomonning mavjudligini ko'rsatadi. Tovushning yolg'iz o'zi so'zni tashkil qilmaydi so'z ma'nosiz bo'lmaydi. So'zning ma'nosi shu tovush bilan ifodalangan mundarijadir. So'z ma'no va tovushning— ichki (semantik) va tashqi (shakl) tomonlarining ajralmas birligidan iborat, shu bilan birga, so'z ma'lum grammatik xususiyatlarga ham ega: tovushlar ma'lum tushunchani ifodalab, shu bilan birga, so'zning grammatik





Yuqoridagilardan soʻzning shunday xarakteristikasi kelib chiqadi: soʻz tilning mustaqillikka ega boʻlgan, ayrim maʼno, emosiyalarni bildiradigan, fonetik va grammatik jihatdan shaklangan, tugallikka ega boʻlgan birligidir.

Soʻzning yaxlit strukturaga, ayrimlikka ega ekanligi, gapning biror boʻlagi boʻlib kelishi uning boshqa elementlardan, masalan, morfemadan farq qilishini koʻrsatib turadi (morfema soʻz ichida yashaydi, soʻz esa — gap ichida); u oʻz ayrim xususiyatlari, masalan, oʻziga xos tarzda shaklanishi bilan soʻz birikmasidan ham farqlanadi.

Soʻzning semantik tuzilishi: bu hodisa soʻz ifodalaydigan maʼnolarning yigʻindisidir: soʻzning maʼnosi (predmet va hodisalar haqidagi tushunchani ifodalashi — keng maʼnoda nominativ, atash vazifasi), bundagi maʼno jilolari, uning qoʻshimcha emosional, stilistik jilolari, koʻchgan maʼno, emosiyalarni bildirishi. Xullas, soʻz bilan ifodalanadigan maʼnolar butun bir sistemadir. (Bunda soʻz maʼnosi iborasini juda keng doirada olamiz: u tushuncha maʼnosini ham bildiradi. Demak soʻz maʼnosi bilan tushuncha bir-biridan farqlidir).

| «besh nom»               |                     |                     |                     |
|--------------------------|---------------------|---------------------|---------------------|
| Soʻz shakli              | Rof'                | Xofd                | Nasb                |
| أَخ axun «aka»           | أخو زيد axū zaydin  | أخي زيد axī zaydin  | أخا زيد axā zaydin  |
| أَب abun «ota»           | أبو زيد abū zaydin  | أبي زيد abī zaydin  | أبا زيد abā zaydin  |
| حَم hamun «test, svyokr» | حمو زيد hamū zaydin | حمي زيد hamī zaydin | حما زيد hamā zaydin |
| وَف fū «ogʻiz»           | فو زيد fū zaydin    | في زيد fī zaydin    | فا زيد fā zaydin    |
| وَد ōū «ega»             | دو مال ōū mālin     | ذي مال ōī mālin     | ذا مال ōā mālin     |

Leksika — tilning eng harakatchan sohasi: tildagi soʻzlarning miqdori qoʻllanishi va maʼnolari oʻzgarib turadigan hodisalardir. Tillarning aralashuvi — bir-biriga taʼsiri leksikadan boshlanadi(4:48).

Soʻzning oʻzgarishi bir qancha koʻrinishlarga ega: 1. Ichki tomoni (maʼnosi), oʻzgaradi. Misollar: oʻtlanish (aslda: biror tomonga borish uchun otga minib, tayyor boʻlish, hozirgi maʼnosi umuman, biror joyga borishga tayyorlanish), yutuq (eski maʼnosi: biror oʻyinda yutilgan narsa, yangi maʼnosi: umuman, muvaffaqiyat), tugma (asl maʼnosi: tugish ishi bilan bogʻlangan), Chogʻishtiring: qizilcha: bir xil kasallikning nomi). 2. Tashqi (fonetik) tomoni oʻzgaradi. Misollar: yaxshi—yaxshi (yoqish feʼlidan), yaltur—yultur, yaproq (asli yapurgʻaq shaklida boʻlgan), qovoq- (koʻzning usti, aslda kapak shaklida boʻlgan: qoplab turuvchi). 3. Har ikki tomoni birga oʻzgaradi. Misollar: bu kun—bugun, sezgan (sezish), izla — ista, ogʻa-ini (aka-uka), ogʻayni (i unlisi tushgan, y tovushi orttirilgan) —doʻst, oʻrtoq. Soʻzning ichki tomoni juda harakatchan, tez taraqqiy qiladigan hodisadir: «Soʻzning tovush tomoniga nisbatan maʼno tomoni ancha tez oʻzgaradi» (A. A. Potebnya). Soʻzning maʼno tomoni va uniig oʻzgarishi bilan bogʻlangan hodisalar koʻp (soʻzning umumiy va xususiy maʼnoda ishlatilishi, koʻchgan maʼnoda qoʻllanishi, polisemiya va omonimiya, bularning oʻzaro munosabati: bir soʻz doirasida qolish yoki boshqa-boshqa soʻzlar tugʻilishi va boshqalar), bu oʻrinda misollar koʻrib oʻtamiz. Yel: 1. Shamol,

Yugurmoq (qiyoslang: shamoldek yugurmoq, yelib-yugurib , yugurib-yelib). 3. Tez rivojlanib — tarqalib ketadigan bir xil kasallikning nomi (boʻrniga yel tushdi kabi). 4. Kasallikdan qolgan asar, taʼsir (bu bolaga qizamiqning yeli qolgan). 5. Y e l chiqarmoq Tur: 1. Biror holatda boʻlish, statika (sen shu yerda tur, men hozir kelaman). 2. Dinamika, vertikal harakat (oʻrningdan tur). 3. Men shu shaharda t u r a m a n (yashayman)- 4. Gapingda t u r . 5. Bu koʻprik kuchli toshqinga t u r i s h berdi (turib berdi; bardosh, chidam). Nok: 1. Nok daraxti. 2. Mevasi (qiyoslang: «tok»da boshqacha xolni koʻramiz: hosilli, mevasi boshqa soʻz bilan ataladi: uzum). 3. Koʻchgan maʼnoda: tajribasiz, xom, «pishmagan». Gap: 1. Ruscha «razgovor», «rech», soʻz (majlisda falon narsa haqida gap boʻldi). 2. Umuman, biror xabar (koʻpincha— salbiy maʼnoda: yomon xabar ). 3. Ruscha «pir» — yigʻilish — ziyofat. 4. Real boʻlmagan, quruq gap (uning aytgani — faqat

gap). Yuqoridagilarning hammasi shunday xulosaga olib keladi: -soʻz shunday belgilar bilan xarakterlanadi: maʼnosi, tovush tomoni (uning koʻpincha maʼlum fonetik konunlar asosida oʻzaro birikkan, uyushgan tovushlar kompleksidan, baʼzangina bir tovushdan iborat boʻlishi; tipik fonetik tuzilishi, urgʻusi: ypgʻy ham shu kompleksdagi tovushlarning uyushishiga yordam qilib, soʻzga fonetik yaxlitlik beradi), shuningdek grammatik belgilari. Bu belgilar soʻzda uch xil strukturaning birlashgan ekanligini koʻrsatadi: soʻzning semantik tuzilishi, soʻzning fonetik tuzilishi va soʻzning morfologik tuzilishi.

Soʻzning fonetik tuzilishi: bu hodisa soʻzning tipik fonetik xususiyatlaridir. Soʻzning fonetik tuzilishi bir qancha qismlardan iborat: fonemalari, ularning soʻzdagi oʻrni va birikish qonunlari, sillabik struktura, aksentologik struktura, bu qismlarning oʻzaro munosabati (masalan, urgʻu oʻrnining oʻzgarishi, odatda, shu kompleksdagi tovushlarga taʼsir qiladi: urgʻusiz unlining reduksiyaga uchrashi kabi), soʻzning fonetik sistemasidagi oʻzgarishlar (hozirgi oʻzgarishlar va tarixiy oʻzgarishlar). Soʻzning tovush tomoni, tabiiy, uning grammatik tomonini ham bildirib turadi. Oʻzbek tilida soʻzning fonetik tuzilishi undagi soʻzlarni eng koʻpi, asosiy qismi, bir va ikki boʻgʻinli soʻzlardan iborat ekanligi (bir bugʻinli soʻzlarning asosiy qismi tarixan koʻp maʼnoli. Masalan, pakir soʻzi aslida metalni, mis, jezni bildirgan, bu metaldan ishlangan chelak va tanga — mayda chaqa pul ham shu soʻz bilan atalgan, keyin bu soʻzlar orasidagi i soʻzlarning koʻp boʻlishi va polisemiyaning keng takrorlashi bir-biri bilan bogʻliq), tovushlarning soʻz boshida va soʻz, boʻgʻin oxirida kelishi, maʼlum boʻgʻinga bogʻlanib uzilib, leksik omonimlar hosil boʻlgan. Umuman, tilda bir boʻgʻinda qoʻllanish yoki biror pozisiyada qoʻllanmaslik bilan xarakterlanish, birikish xususiyatlari (l-q r-t, l-k: sonor bilan jarangsiz undoshning bir boʻgʻin doirasida birikib kela olishi kabi), urgʻuning koʻpincha bogʻliq boʻlishi (soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushishi), erkin urgʻuning, ham koʻrinishlarga ega ekanligi, boshqa tillardan kirgan soʻzlarda va soʻzga urgʻu olmaydigan elementlar (urgʻusiz affikslar va yuklamalar) qoʻshilganda, urgʻuning oxirgi boʻgʻinga tushmasligi kabi hodisalardan iborat.

Soʻzning morfologik tuzilishi: bu hodisa soʻzning morfemalarga, maʼno bildiradigan eng kichik qismlarga ajralish xususiyatlaridir: ter + im + chi+lar + dan kabi.

Bu strukturalarning har biri tillararo ham, bir tilning oʻz ichida ham farqlanadi. Ularning bir til doirasida, bir tilning oʻz ichida farqlanishi til taraqqiyotining turli davrlariga koʻra, dialekt — shevalarga koʻra va stilistik xususiyatlarga koʻra boʻladi. Misollarni qiyoslang: oʻt (olov maʼnosidagi oʻt soʻzi aslida oʻrt shaklida boʻlgan, chogʻishtiring: oʻrtanmoq yon-moq), uvun—un (muka), tish(tash) +iq (tashqariga chiqmoq, chogʻishtiring: ichiqmok jarangsiz undoshlar orasidagi reduksiyaga uchragan, i unlisi tushgan, g—sh: ch), boʻyinchoq — moʻyinchoq-qanday yasalma (hosil qilingan—yasalib chiqqan element) dastlabki («birlamchi») emas, balki keyingi («ikkilamchi») hodisadir: u boshqa bir hodisaga tobe (maʼno va boshqa jihatlardan), uning semantik va struktural xususiyatlari oʻsha dastlabki hodisa orqali aniqlanadi. Soʻz yasalishi tahlilida tarixiy, diaxronik faktlar zarur boʻlib qolgan oʻrinlardagina, qiyos uchun keltiriladi, hisobga olinadi, lekin asosga olinmaydi.

Soʻz yasashning vositalari har xil. Masalan, ishchi (yasash vositasi: affiks); fotojurnal, kinolenta (soʻzlarni qoʻshish yoʻli bilan yasalgan); MTS (qisqartirish yoʻli bilan yasalgan: Mobil telefon stansiyasi); oldingilar, (sifatni otga koʻchirish va otga qoʻshiladigan -lar affiksini keltirish bilan: oldingi odamlar masalan, oldingi terimchilar — oldingilar); aka va uka, boʻz va bur (boʻz soʻzi oq tusni bildiradi: rangi boʻzarb— oqardi kabi, oq tusli materiya ham boʻz deyilgan); bur soʻzi ham oq, oqish predmetni bildiradi: boʻr — mel, boʻri — oqish rangdagi jonivor, demak qadim bur va boʻz soʻzlari bir-biri bilan aloqador boʻlgan, ular tovush oʻzgarishi yoʻli bilan bir-biridan farqlangan — yasalgan. Yana: koʻr va koʻz, semir va semiz qimir (qimir-kimir) va qimiz; bosh bola qoʻshilmasidagi bosh soʻzi «birinchi, boshlangʻich, dastlabki, toʻngʻich» maʼnosini bildiradi. Bu soʻz aslida «golova» maʼnosidagi bosh soʻzi bilan bogʻliq (bosh—gavdaning boshlanishi, bosh bola — naslning boshlanishi), keyinroq bu maʼnolar orasidagi boshlanish yoʻqolib,

natijada, bular ikki ayrim-ayrim soʻz boʻlib ketgan. Yana: oyoq—, oyoq- odoq- biror narsaning oxiri, soʻnggi, tugallash qismi; paqir (baqir): aslida metall maʼnosi (jez)—chelak (chelak metaldan yasalgan) —pul (arh, mayda pul u ham metaldan): bular hozir omonimlar. Demak polisemiyaning yoʻqolishi va omonimiyaga oʻtish yoʻli bilan boshqa soʻz kelib chiqqan(5:125).

Misollar koʻrsatadiki, oʻzbek tilida soʻz yasashning vositalari har xil boʻlib, ularning tiplari shunday koʻrinishlarga ega: morfologik tip (soʻz yasashning morfologik yoʻli), leksik-semantik tip (soʻz yasashning leksik-semantik yoʻli), morfologik-sintaktik tip (soʻz yasashning morfologik-sintaktik yoʻli), fonetik tip (soʻz yasashning fonetik yoʻli). Demak soʻz yasash: 1. Grammatik soʻz yasash (affiks «yordami bilan yasash—affiksasiya, soʻz qoʻshish yoʻli bilan yasash — kompozisiya soʻzni bir leksik-grammatik kategoriyadan bonqasiga, boshqa turkumga koʻchirish — kategorial koʻchish yoʻli bilan yasash — konversiya). 2. Leksik-semantik soʻz yasash (maʼno oʻzgarishi orqali yangi soʻzning hosil boʻlishi). 3. Fonetik soʻz yasash (fonetik vositalar — har xil fonetik oʻzgarishlar yordami bilan yasash) tusida boʻladi. Араб тилида эркак ва аёллар нутқидаги фарқ сўз тузилишига ҳам таъсир этади. Буни қуйидаги мисолларда кузатишимиз мумкин:

katabtu erkaklar-yozdim

katabta Siz yozgansiz

katabti Siz yozgansiz

kataba u yozadi

katabat u yozgan

Er-xotin

katabtuma - y- (ham) -yozdi

kataba: - ular - (ham) -yozdilar

katabata: ular (ham) -yozishadilar

Koʻplik

katabna, -Biz yozdik

katabtom (erkaklar. nutqi) yozgan edik

katabtunna - sizlar yozgan edingizlar (ayol.nutqi)

kataba - ular yozgan edilar (erkaklar. nutqi)

katabna -ular shunday deb yozgan edi (ayol. nutqi)

Hozirgi-kelasi zamonda fe'llarning tuslanishi

aktubu -Men yozaman (ayol.nutqi)

taktubu –siz yozasiz

taktubi – u yozadi

yaktubu ular yozadi

taktubu u yozadi

Ko'plik

naktubu Biz-yozamiz

taktubu:siz yozasiz (erkaklar. nutqi)

taktubna siz yozasiz (ayol. nutqi)

yaktubu: Ular yozadilar (erkaklar. nutqi)

yaktubna Ular, yozadilar(ayol. nutqi)

O'zbek tili leksikasidagi ba'zi o'zlashmalar poetik jihatdan boshqacha qiyofaga kirib, ularning aslida arabcha so'zlar ekanligi unutiladi. Masalan, yorug'lik, chiroq ma'nolaridagi barq ( so'zi) so'zi (barq urmoq) Fe'l yasovchi -i affiksini qabo'l qilgan va sof o'zbekcha so'zga aylangan. U r — l tarzidagi tovush o'zgarishi bilan (balqimoq) ishlatilganda, uning asli mutlaqo inkor etiladi va yasovchi asosi arabcha ekanligi sezilmaydi.

R.A.Budagov lug'aviy o'zlashmalarning o'z tildagi shakli bilan so'z qabo'l qilgan tildagi shakli 8 funksional qiymat bilan munosabatga kirishi haqida fikr bildiradi. Bu fikrni o'zbek tilidagi arabcha so'zlar tabiati ham to'la tasdiqlaydi. Xususan: a) arab tilida konkret ma'noda ishlatilgan lug'aviy birlik o'zbek tilida mavhum ma'no bildiradi (soxib (ega), ayyom (kunlar), mavj (to'lqin)); b) arab tilida jins ma'nosida ishlatiluvchi so'z o'zbek tilida tur ma'nosida qo'llanadi: murabbo (murabbo, marmalad), ayol (bola-chaqa, oila-ayol(xotin), maraz

(umuman kasallik, dard)-mapaz (yaramas, razil inson); v) arab tilida bir ma'noda ishlatilgan so'z o'zbek tilida polisemantik harakter kasb etadi (g'alayon, bisot); g) arab tilidagi otdan o'zlashgan ba'zi so'zlar o'zbek tilida uslubiy muqobiliga ega bo'lmaydi (anhor, anqo, araq, ariza, aruz); d) arab tilida noarxaik tavsifdagi lug'aviy birlik o'zbek tilida arxaiklashgan bo'ladi; (qozi, firqa, ishtirokiga, xikmat (fizika); o) arab tilida lug'aviy mustaqillikka ega bo'lgan so'z o'zbek tilida lug'aviy mustaqilligini inkor etadi (almisoq(dan beri), daqyonus(-dan qolgan); 6) arab tilida lug'aviy birlik ba'zan o'zbek tilida so'z tavsifida bo'ladi (lisoniy, lug'aviy, sifat, fe'l, taqriz); k) arab tilida so'z hoida ishlatiluvchi birlik o'zbek tilida so'z birikmasi tarkibida qo'llanadi (nazar solmoq, avf etmoq, xayol surmoq, bahridan o'tmoq);

D.N.Shmelev to'g'ri e'tirof etganidek, lug'at sostavida bir xalqning boshqa xalqlar bilan turli tarixiy davrlardagi aloqasi ifodalanadi. SHu bois til leksikasi adabiy (chet) o'zlashmalarning hisobiga boyib boradi. So'z va boshqa lisoniy hodisalarni o'zlashtirish bilan bog'liq masalalar, tilshunoslikda, xususan o'zbek tilshunosligida birmuncha o'rganilgan. O'zbek tili leksikasining o'zlashma katlami V.V.Reshetov, F.A.Abdullaev, M.M.Mirzaev, I.R.Rasulov, N.G.G'ulomova, E.A.Begmatov, G.T.Muhammadjonova, T.I.Rahmonov kabi bir qator mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, bir tildan boshqa tilga so'z o'zlashtirish o'ziga xos sharoit va davr taqozosi bilan bog'lanadi. Ilmiy-lisoniy jihatdan yondoshilganda, "ajnabiy" so'zlarning o'zlashishi ikki xil bevosita va bilvosita yo'llar bilan amalga oshadi. Birinchi holatda asos tilning o'z qatlamiga xos lisoniy birliklar o'zlashsa, ikkinchi holatda uning o'zlashgan qatlamiga xos lug'aviy birliklar o'zlashadi. Masalan: dasturxon, darvoza, non va xokazo lug'aviy birliklar tojik tilining o'z qatlamlari sanalib, ularning o'zbek va boshqa turkiy xalqlarga kirib qolishi bevosita sodir bo'lgan. Tojik-fors tillari lug'at tarkibining o'zlashgan qatlamiga mansub va asli arabcha jumxuriyat, dunyo, viloyat, muhandis, majlis, tijorat, rais kabi so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashuvi bilvosiga usulda amalga oshgan.

Bundan tashqari, har bir tilda, xususan, o'zbek tilida ham so'z o'zlashtirishning tarixiy-an'anaviy (yoxud klassik), hamda hozirgi zamonaviy turlari mavjud. Qizig'i shundaki, o'zbek tili leksikasining arabcha so'zlar qatlami so'z o'zlashtirishning tarixiy-an'anaviy ko'rinishi orqali vujudga kelgan. Tarixiy-an'anaviy yo'sinda o'zlashgan lisoniy birliklar til lug'at sostavida uzoq vaqt saqlanadi. Davrlar o'tishi bilan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tazyiqi ostida ular ba'zan faollashib, ba'zan sustlashib "tovlanib", qalqib turadi. Faollashgan lug'aviy birliklarning ma'lum bir tazyiq ostida bo'lishiga iste'moli cheklangan boshqa leksemalarning faollashuviga sabab bo'ladi. Hozirgi vaqtda o'zbek tili leksikasining tarixiy-an'anaviy yo'sindagi o'zlashgan qatlamida ayni ana shu jarayon boshlagan. Iste'mol doirasi salbiy ma'no jilvasi bilan cheklangan hokim, rais, noib va hokazolarning davr taqozo etgan yangi, ijobiy ma'no bilan "faoliyat" boshlagani buning yorqin misolidir.

#### Ba'zi modellar shakli

| Birlik sonda                    | Ko'plik son modeli | Ko'plik sonda         |
|---------------------------------|--------------------|-----------------------|
| درس <i>dars</i> “ dars ”        | فعل                | دروس <i>duru:s</i>    |
| كتاب <i>kita:b</i> “ kitob ”    | فعل                | كتب <i>kutub</i>      |
| قلم <i>kalam</i> “ qalam ”      | أفعال              | أقلام <i>akla:m</i>   |
| مدرسة <i>madrasa</i> “ Maktab ” | مفاعل              | مدارس <i>mada:ris</i> |
| فرقة <i>Firka</i> “guruhi ”     | فعل                | فرق <i>firak</i>      |
| رجل <i>ragul</i> “ odam ”       | فعال               | رجال <i>riga:l</i>    |
| جناح <i>gina:x</i> “ qanoti ”   | أفعلة              | أجنحة <i>agnixa</i>   |

Hozirgi o'zbek adabiy tili lug'at tarkibida arab tilidan o'zlashgan so'zlar grammatik jihatdan asosan ot turkumiga xosdir: muharrir, muhandis, lug'at, shirkat, viloyat, nohiya, ma'naviyat, rais, vazir, islohot, me'mor, xomiy, adliya,



jumhuriyat, jarroh, tibbiyot, kulliyot, dorilfunun, talaba, tolib, ma'raka ., mavzu, noib, xudud va boshqalar. Ularning ayrimlari verbalizatsiya hodisasi ta'sirida ko'makchi fe'llar qabo'l qilib, fe'lga xos kiymat kasb etgan: ma'ruza qilmoq, va'da bermoq va hokazolar. Shunisi ham borki, arab lug'aviy o'zlashmalarining fe'lga xos lisoniy qiymat kasb etishi (fe'llashuvi) -o'zbek tili frazeologik sistemasini salmoqli boyitadi, chunki arab lug'aviy birliklarining fe'llashuvi tufayli frazeologik iboralar ham vujudga keladi: vafo kilmok, va'da bermoq.

Ot turkumiga xos ayrim arabcha so'zlar o'z tilda (arab tilida) grammatik jihatdan birlik va ko'plik shakllariga ega. Ular o'z shakliy xususiyatlari bilan son kategoriyasining paradigmatic qatorini hosil qiladi. Qizig'i shundaki, ularning birlik sondagi shakllarigina; o'zbek tiliga o'zlashgan, mazkur kategoriyaning ko'plikni bildiruvchi shakllari o'zbek tili leksikasi uchun mutlaqo yotdir. Qiyoslang: bob (abvob), bayt (abyot), vatan (avton).mavu (amvoya), amr (avomir), tolib (tullab), kitob (kutub), qalam (akyaam), kotib (kuttab), maktab (makotib). Yoki aksincha, ba'zi so'zlarning faqat ko'plik formasi o'zlashgan: kibor (kabir), ayyom (yavm), akraba (karib), aslaha (sijox), alvon (yaavn) va boshqalar.

Ba'zi bir arab o'zlashmalarining ham birlik, ham ko'plik shakllari o'zbek tiliga kirib kolgan. Ular o'zaro bog'liq bo'lgan har xil ma'nolar ifodalashga xizmat qiladi: -lafz - alfoz, amin -umaro, faqir -fuqaro, xalq -xaloyiq, tolib - toliba kabilar. Muhimi shundaki, lug'aviy va umumgrammatik ma'noda farq qilmaydigan bunday so'zlarning ayrimlari o'zbek tilida har xil umumgrammatik ma'nolar ifodalab, turlicha so'z turkumlariga mansub

Bir qator so'zlarning biyarlik hamda ko'plik shakllari esa boshqa-boshqa tushunchalarni anglatish uchun differentsiatsiya qilingan. Masalan: bayon (voqea-hodisaning og'zaki yoxud yozma ifodasi), bayonot - bildirish, tushuntirish, tahrir - tuzatish, tahririyot - redkollegiya, nashr - tarqatish, nashriyot - muassasa kabi.

Arabcha lug'aviy o'zlashmalar o'zbek tili grammatik qonun-qoidalariga bo'sungan holda, bir qator juft so'zlar hosil qilgan. Imda ularning tavsifi atroflicha izohlanadi.

Arab tili sarlavhalari ma'no jihatdan ko'proq abstrakt-mavhum hamda diniy tushunchalarni ifodalash xususiyatiga ega. Masalan: mas'uliyat, ma'rifat, madaniyat, olim, madrasa, dars, ta'lim, jamoa, jamoat, savob, sharofat, vakil, g'azovat, shaxid, muqaddas va boshqalar.

Professor V.A.Zveginsevning ko'rsatishicha, semasiologiyaga alokador har bir ishda so'zlarning leksik manolarini aniqlash xisobga olinishi kerak, chunki so'zning yaxlit ma'nosi uning leksik-semantik variantlari (LSV) yig'indisidan tashkil topdi. Semasiologik tadqiqotlarda o'zlashmalarning o'z va o'zga tildagi ma'no xususiyatlariga alohida e'tibor berish talab qilinadi. Chunki so'z o'zlashishida dastlab so'z va uning leksik ma'nolari hisobga olinadi. Ma'lumki, chet so'zning semantikasi o'zlashtirayotgan tilning lug'at tarkibi hamda taraqqiyot darajasiga ko'ra, to'la, qisman va hatto butunlay. O'zgargan holda o'zlashgan bo'lishi mumkin. Bu muammo ayrim tadqiqotchilar tomonidan tahlil etilgan. Shunga qaramasdan, arab lug'aviy o'zlashmalaridagi mazkur holat to'la takrorlamaydigan xolatlar ko'plab uchraydi. Masalan, bir ma'noli bir qator so'zlar o'z navbatida real narsa predmet ma'nolari bilan bog'liq bo'lsa-da, o'zbek tilida boshqacha ma'no kasb etadi - mavhum ma'noli lug'aviy birliklar tusini oladi. Masalan: sohib (ega), qomat (bo'y), miqyos (o'lchov asbobi), ayyom (kunlar), mavj (to'lqin), g'ubor (chang) kabi. Ba'zi monosemantik so'zlarning ma'nosi esa o'zlashgan tilda butunlay boshqa tusga kirib, o'z tildagi ma'no xususiyatini tark etadi. Masalan, g'alayon so'zi arab tilida suvning qaynash jarayonini anglatadi. O'zbek tilida esa norozilik maqomida ko'tarilgan isyon, qo'zg'olon, to'polon ma'nolari bilan birgalikda ko'chma ma'noda kishi ichki dunyosidagi tug'yon, jo'sh urish ma'nolarida ham qo'llaniladi. Aholi g'alayonga keldi, qo'rqqanidan emas, zulmga, zo'rlikka, xaqsizlikka chidamaganidan g'alayonga keldi (M.Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha).

Arabcha ko'p ma'noli so'zlarning ikki yoki undan ortiq ma'nolari bilan o'zbek tiliga o'zlashganligi ham ko'zga tashlanadi. Masalan, ustoz so'zi arab tilida: 1) o'qituvchi; 2) professor; 3) mohir usta; 4) maestro (turli kasb egalariga murojaat

paytida) kabi ma'nolarga ega. O'zbek tilida esa: 1) kasb-xunar, ilm va shu kabilarni o'rgatuvchi murabbiy, rahnamo ma'nolari bilan o'zlashgan. Tarix so'zi ham ana shunday harakterga ega: 1) sana; 2) vaqt; 3) davr; 4) era; 5) fan nomi (istoriya); 6) xronika; 7) letopis; 8) hikoya kabi ma'nolarni anglatadi. O'zbek tiliga: 1) ijtimoiy taraqqiyot bilan yuzaga kelgan voqelik, hayot; 2) o'tmishga oid fakt va hodisalar majmuasi; 3) bozor voqea-hodisa yoki narsaning izchil taraqqiyot yo'li; 4) jamiyat taraqqiyoti haqidagi fan; 5) (Biror-bir voqea-hodisaning qachon bo'lib o'tganini ko'rsatuvchi aniq sana, kalendar, vaqt; 6) she'riy san'at turi kabi ma'nolari bilan kirib kelgan.

O'zbek tiliga o'zlashgan arabcha so'zlarning bir guruhi o'zbek tili zaminida o'z ma'no qiymatini butunlay yo'qotib, etimologik ma'no va tushunchasi bilan aloqador bo'lmagan boshqa semantik birlikka aylangan. Bunday xarakterdagi so'zlar asl fonetik va morfologik qiyofalarini o'zgartirmagan. Shunday bo'lsa-da, ular arab va o'zbek tilida semantik yaqinlikka ega bo'lmaydi. So'zning o'z tildagi ma'nosi bilan o'zlashgan tildagi ma'nolari orasida bog'liqlik unutiladi. Masalan, «Bisot so'zi arab tilida monosemantik harakterga ega. U faqat gilam so'zining ma'nosini ifoda etadi. O'zbek tilida esa bu so'z arab tilidagi ma'no bilan aloqasi bo'lmagan tushunchalarni anglatadi: 1) xotinlarning o'ziga tegishli o'lik moli, mol-dunyosi; 2) oilaga, xo'jalikka qaratilgan mol-dunyosi. Bisot so'zi ko'chma ma'noda jonli tilda ham qo'llaniladi. Masalan, kimsada bor bo'lgan har qanday narsa (Bisotimda bittagina latifa bor edi, shuni aytib berdim).

Arab o'zlashmalarining leksik-semantik xususiyatlari haqida shuni aytish mumkinki, ularning ma'nolari o'zbek tiliga o'zlashganida muayyan o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Ayrim o'zlashma davr talabi bilan yangi ma'nolar kasb etgan. Masalan, xotira so'zi o'zbek tilida psixologik atama, umuman yodda saqlash, esdalik ma'nolarini kasb etgan edi. So'ngra marhumga aylangan biror-bir shaxsni eslatish uchun o'tkaziladigan kichik marosim ma'nosiga ham ega bo'ldi. Elektron-hisoblash mashinalarining paydo bo'lishi va amalga tadbqiq etilishi munosabati bilan xotira so'zi yana boshqa ma'noga - yozib olingan xabar va informatsiyalarni

saqlash va uzatish ma'nosini ham qo'lga kiritdi. Bu o'rinda shuni ham aytish muminki, xotira so'zining elektron-xisoblash mashinalarining qobiliyatiga nisbatan yangi keyingi ma'nosi rus tilidan o'zlashgan bo'lib, bu ma'no xotira leksemasining zimmasiga yuklangan. O'zlashmalarda ma'no torayish, kengayish, qisman va to'la o'zgarishi, ma'no bo'yoqlarining yangi ma'nosi, ma'noning ko'chma harakter olishi kabi bir qator o'zgarishlar yuz bergan. Ular o'zbek tili lug'at tarkibiga kiribgina qolmay, yangi-yangi leksik birliklar yasalishida ham yaqqol ishtirok etgan. Ma'lumki, til leksikasida eskilik va zamonaviylik bo'yog'iga ega bo'lgan lug'aviy birliklar alohida-alohida qatlamlarni tashkil qiladi. Sistem tilshunoslik nuqtai nazaridan yondoshilganda, bunday holatlar zamonaviylik - zamonaviy emaslik belgisiga ko'ra bog'lanib, mantiqiy dialektikaning, inkorni-inkor qonuniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ko'p jihatdan unda hozirgi o'zbek tili leksikasining arabcha so'zlari quyidagi ikki guruhga ajratib tahlil qilinadi: 1) arxaizmlar; 2) istorizmlar.

Hayotda paydo bo'lgan yangi hodisalarni nomlash uchun tayyor so'z tilda har doim ham etishavermaydi. Bunday hollarda boshqa tildan ana shu tushunchani ifodalovchi tayyor elementlarni o'zlashtirishga ehtiyoj seziladi. Lekin ayni paytda mazkur o'zlashmalarning ma'lum bir guruhlari vujudga keladi. Arab lug'aviy o'zlashmalari tematik jihatdan tasnif qilinadi. Bu ularning qo'llanish doirasini belgilash bilan birga, muqobillashayotgan lug'aviy birliklarga nisbatan iste'mol doirasini ham tasavvur etishga yordam beradi. Xullas, o'zbek tili leksikasining o'zlashma qatlami, xususan, arab lug'aviy o'zlashmalari leksik sathda ko'p qirrali amaliy mavqega ega. Bitiruv malakaviy ishda lug'aviy birliklarning ana shu xususiyatlari o'rganildi.

Sinonimiya shakl va mazmun nomutanosibligp (asimmetriya)ni vujudga keltiruvchi omillardan biri sanaladi. Lug'aviy birliklar sinonimiyasining o'ziga xos sistemaga aylanishida boshqa tillardan o'zlashgan lisoniy birliklarning ham sezilarli hissasi bor. Bu xususiyat hozirgi o'zbek adabiy tilidagi arab lug'aviy o'zlashmalariga ham daxldordir.

Ishda arabcha-o'zbekcha so'zlar sinonimiyasi, arabcha-arabcha so'zlar sinonimiyasi, arabcha-forscha so'zlar sinonimiyasi, murakkab tipli sinonimiya kabi turlarga ajratiladi.

O'zbek tilining o'zlashgan so'zlari bilan o'z so'zlari, ya'ni o'zbekcha so'zlarning sinonimiyalashuvi miqdoran kuchlidir. Masalan, avlod so'zi ishtirokidagi sinonimik uya. Bir davr kishilarining naslini birlashtiruvchi ma'nosini ifodalovchi avlod so'zi butun so'zi bilan bir sinonimiya paradigmasida tutashadi. Lekin butin so'zi bu ma'noda ayrim so'z birikmalari tarkibidagina qo'llanadi.

O'zbek tili leksik sinonimiyasida muqobillari faqat arab tiliga tegishli bo'lgan paradigmatic qatorlar ancha. Masalan, ahvol-holat-hol. Bu arabcha o'zlashmalar kayfiyatning tashqi ko'rinishining bir momentidagi ifoda ma'nosi bilan o'zaro yaqinlikka ega. Bu so'zlarning harakterli xususiyati shundaki, ular arab tilida bir o'zakdan yasalgan bo'lib, xol so'zi birlik shaklda, axvol so'zi esa uning ko'plik shakllaridir. Bu so'zlar ham birlik ham ko'plik formasida o'zlashib o'zaro sinonimik qatorni tashkil etadi. Xol so'zi kam qo'llanadi.

O'zbek tili sinonimik o'zlashmalarda arabcha va forsha-tojikcha lug'aviy birliklardan tashkil topuvchi paradigmatic uyalar ham birmuncha. Masalan, ayb so'zi forsha so'zi bilan rasm-odat nomlari bilan yaqinlikka ega. Gunoh va ayb so'zlari semantik-stilistik jihatdan deyarli bir xil qo'llanaversa-da, gunoh so'zining ma'nosi ayb so'zining ma'nosiga nisbatan bir muncha kuchli ottenkaga ega. Bu uning diniy tushuncha ifoda etish bilan bog'liq. Misollar: U Oyqizning yoniga keldi-da, aybiga iqrar bo'lgan gunohkordek ma'yuslik bilan gapirdi (Sh.Rashidov.Bo'rondan kuchli). Domla gulduragan ovoz bilan po'pisa qildi - xudoning qudratiga shak keltirmang. Gunohingizni orttirasiz. Sizning hamma qilmishingiz gunoh (P.Tursun. O'qituvchi).

Arabcha-ruscha so'zlar sinonimiyasi o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Xususan, ular konkret ma'no anglatuvchi so'zlar hisoblanib barqaror sinonimik qatorlar hosil qiladi. Masalan: muallif so'zi ruscha avtor so'zi bilan badiiy, ilmiy, adabiy asarni yaratgan, nimadir ixtiro qilgan kishi ma'nosini anglatishiga ko'ra

ma'nodoshlik belgisiga ega. Keyingi vaqtlarda muallif so'zining iste'moli birmuncha kengayayotganligi tufayli avtor - muallif dubletligiga chek qo'yilishi shubhasizdir.

Bundan tashqari, arabcha o'zlashmalar ayni paytda ham arabcha, ham forscha, ham o'zbekcha so'zlar bilan paradigmatic qator tashkil qiladi. Masalan: xat (arabcha) - maktub (arabcha), noma (forscha); chiqim (o'zbekcha) - sarf-harakat (arabcha); o'lik (o'zbekcha), murda (forscha) - jasad (arabcha) kabi so'zlar o'zaro semantik-stilistik ottenkalar kasb etib, sinonimik qatorda uning a'zolari sifatida qo'llaniladi.

O'zbek tili ba'zi lug'aviy omonimiya paradigmalarining vujudga kelishida o'zlashmalarning fonetik qiyofasi alohida ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ba'zi omonimik paradigmalarda arabcha lug'aviy birliklar o'zlarining asl fonetik qiyofasini saqlagan bo'lsa, ba'zan ularning fonetik qiyofasida o'zgarish ro'y bergan. Ana shu o'zgarish ularni til lug'at tarkibidagi boshqa lug'aviy birliklar bilan omonimlashuviga sabab bo'lgan. Ishda o'zbek tili lug'aviy omonimiyasi shartli ravishda ikki guruxga ajratiladi: 1) arabcha va arabcha so'zlar omonimiyasi; 2) arabcha so'zlar bilan o'zbekcha va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar omonimiyasi. Bunda ana shu tavsifda yuz beradigan shakliy-mazmuniy nomutanosibliklar ashyoviy dalillar asosida sharx etilgan. Bunday nomuvofiqliklar o'zbek tili leksikasidagi ba'zi so'zlar bilan fonetik qurilishga ko'ra tasodifan o'xshashligi sabab bo'lsa, ikkinchidan, o'zlashgan-arabcha lug'aviy birliklarning fonetik qiyofasida ayrim o'zgarishlarning yuz berishi va shu tufayli o'zbek tili leksikasidagi boshqa bir so'z bilan fonetik qiyofada mushtaraklikning sodir bo'lishi sabab bo'lgan.

O'zbek tiliga o'zlashgan arabcha so'zlar o'zbek tili antonimiyasi tizimida salmoqli o'rin tutadi. Bu arabcha so'zlar hodisa-holatning ichki ziddiyatini ochishda, xususiyatlarini qarama-qarshi qo'yib qiyosiy harakteristika berishda keng qo'llaniladi. Harakterli tomoni shundaki, arab tilidan o'zlashgan birliklar ham leksik, ham grammatik vositalar orqali amalga oshadi. Misollar: avlod-ajdod, azob-

rohat, visol-xijron, javob-savol, jazo-mukofot, janub-shimol, zarar-foyda, zolim-mazlum, mag'lub-g'olib, muhabbat-nafrat, mudofaa-xujum, bama'ni-bema'ni, ahil-noahil, haq-nohaq va hokozalar.

Arabcha o'zlashmalar forscha so'zlar bilan ham antonimik juftliklar hosil qiladi. Biroq bunda o'ziga xos holatlar yuzaga keladi. Masalan, arabcha harob so'zi forscha odob so'zi bilan antonimik juftlik hosil qiladi. Biroq harob va odob so'zlari hamma-vaqt ham antonim sifatida barqaror qo'llanavermaydi. Chunonchi, kishining ruhiy holatini ifoda etganda, obod so'zi antonimlikdan chiqib ketadi. Masalan, uning ahvoli "harob" deyish mumkin, lekin uning ahvoli "obod" tarzida qo'llash mumkin emas. Bu holatda obod so'zi o'rnida yaxshi so'zi qo'llanadi.

Hozirgi zamon o'zbek tilida so'z yasashning keng qo'llanadigan eng unumli, yetakchi tiplari affiksali yo'l va kompozisiya—so'z qo'shish yo'lidir. Bu usullar orqali sodda, yasama so'zlar va qo'shma so'zlar hosil qilinadi. Bu yo'llar bilan yasashda — yangi so'z hosil qilishda, birinchidan, semantik boshqalik (masalan, affiksasiyada: yasovchi o'zak-negizning ma'nosidan jiddiy farqlanadigan yangi ma'no), ikkinchidan, fonetik boshqalik (masalan, fonetik jihatdan kengayish) kelib chiqadi. Misol: suvoqchi (suvoq + chi). Demak bu jihatdan sodda yasama so'zlar va qo'shma so'zlar o'xshashlikka ega. Lekin bu xususiyat (yangi ma'no va fonetik kompleksning tug'ilishi) so'zning yasalganligini ko'rsatadigan yagona — umumiy belgi emas: leksik-semantik morfologik-sintaktik kabi yasashlar bu xususiyatga ega emas. Leksik-semantik yasashda faqat semantik boshqalik bor, morfologik-sintaktik yasashda esa, grammatik va qisman semantik boshqalik bor. Demak bularning har ikkalasida ham fonetik boshqalik uchramaydi. Kelib chiqadiki, umuman olganda, har qanday yasashda shakl, fonetik boshqalik— yangi tovush kompleksi bo'lishi shart emas, yasashning hamma tipini o'z ichiga oladigan umumiy belgi — chegara yo'l, bu belgi har bir to'ring o'ziga qarab belgilanadi, ayrim tiplar orasida turli darajadagi o'xshashliklar uchraydi(6:83).

Hamma tipdagi so'z yasashi uchun umumiy belgi yangi leksema hosil qilishdir. (Umumiylik ikki element orasida aloqa bo'lishidir). Lekin bu leksema

(so‘z) o‘z motivini saqlashi — shu yasalishga asos bo‘lgan element bilan (masalan, yasovchi o‘zak-negiz bilan) bog‘langan bo‘lishi, bu bog‘lanishning sezilib turishi shart (betonchi, temirchi kabi). Bu jihatdan qaraganda, leksik-semantik yo‘l bilan yasash hodisasi yangi so‘z yasash tipiga o‘xshaydi. Leksik-semantik yo‘l bilan yasash so‘z ma‘nosining o‘zgarishi, ma‘noning ko‘chishi, polisemantik so‘zning ayrim ma‘nolari orasidagi bog‘lanish yo‘qolib («aloqa— ip» uzilib), ayrimlarining maxsuslanishi, shu polisemiya asosida omonimlar — ayrim-ayrim so‘zlar tug‘ilishidir. Masalan, tuz so‘zi ham ot , ham fe‘l tuzmoq ) bo‘lib, bu ikki so‘z tarixiy planda o‘zaro bog‘liq (harakat va shu harakat bilan bog‘langan predmet) polisemantik xarakterdagi bir so‘zdir. Yana misollar: tot (biror narsaning sirti: ot va toshib ichidan sirtiga — toshiga chiqish: fe‘l), ich (ichki qism: ot va ichga tortmoq — ichga olmoq: ichmoq — fe‘l; bunday o‘rinlarda ham leksik omonimiyani, ham grammatik omonimiyani ko‘ramiz), bel (jonlilarning beli — organizmning o‘rta qismi va dovon, pereval: tor yo‘lining o‘rta qismi), so‘z ham arxaik. Qiyoslang: bo‘zchining tushiga ikki qarch bo‘z kirar, (Maqol); qarich so‘zi aslida shundan kelib chiqqan (qari + ch: kichraytish affiksi). Ko‘rinadiki, bunday o‘zgarish ham tilda so‘zning miqdorini ko‘paytirish yo‘llaridan biri, lekin bu hodisa, birinchidan, tarixiy planda bo‘ladi, asta-sekin yuz beradigan o‘zgarish natijasida tuziladi, ikkinchidan, yasashga asos bo‘lgan element bilan bog‘lanishini saqlamaydi shunga ko‘ra u leksikologiyaning bir qismi, leksikani boyitish yo‘llaridan biri sifatida qaraladigan hodisa bo‘lib, uning so‘z yasash yo‘li sifatida qaralishi juda ham shartlidir. Yasalgan so‘zning yasashga asos bo‘lgan elementga munosabati derivat leksemadagi (yasalgan so‘zdagi) yangilikning darajasi, so‘z yasash tipiga qarab har xil bo‘ladi, lekin yasashdagi semantic o‘zgarish, boshqalik yangi leksik birlikni ajratishga asos bo‘ladigan darajada bo‘lishi zarur. Masalan, -na, -roq -ish kabi affikslar shakl yasovchi bo‘lib, ular leksik ma‘noga jiddiy o‘zgarish kiritmaydi, grammatik ma‘noni ifodalaydi (sintaktik bo‘lmagan shaklni hosil qiladi), demak katta + roq, oq + ish kabi ko‘rinishlar so‘z yasalish hodisasi sanalmaydi. Qiyoslang: qiz + cha (shakl yasalishi)—qizil + cha (so‘z yasalishi: -cha affiksi bu



o'rinda, kichiklik ma'nosini saqlash bilan birga, so'z turkumini ham o'zgartiradi: sifatdan ot hosil qiladi).

So'z yasash hodisasining so'zning leksik-grammatik kategoriyalari (so'z turkumlari) bilan aloqasi uning bu kategoriyalarga ko'ra farqlanishida, qo'llanish doirasining har xilligida aniq ko'rinadi: yasovchi affikslarning ko'pi so'zga kategorial o'zgartirish kiritadi: bir turkumdan boshqa turkumga ko'chiradi (bu hodisa tashqi yasaliş sanaladi; otdan sifat yasash, sifatdan ot yasash, fe'ldan ot yasash, sifat, ot va undovlardan fe'l yasash kabi); ichki yasaliş (turkumni o'zgartirmay yasash, tunuka + chi kabi) nisbatan kam tarqalgan bo'lib, u, asosan, ot kategoriyasi bilan chegaralandi; abbrevasiya, qisqartish yo'li bilan hosil qilish ham otlarga xosdir; konversiya, turkumni ko'chirish, tashqi yasaliş xarakteriga ega; ot, sifat va fe'llarda affiksasiya ham, kompozisiya ham keng qo'llanadi, sonlarda esa affiksali yasaliş uchramaydi.

## **1.2. So'z yasash modellari tahlili**

So'z yasash tiplari va har bir tipning modellari aralash holda ham qo'llanadi. Masalan, affiksasiyaning «o'zak +suffiks» va «prefiks + o'zak-negiz» modellarining bir so'zda uchrashi: «prefiks + o'zak + suffiks» (notinchlik beo'xshovlik kabi; bu modelda so'z yasash, ma'lum sabablarga ko'ra juda kam uchraydi); muzyorar, otboqar, tovonteshar, tillatopar, beshikterva-tar (hasharot otlari) kabi so'zlarda kompozisiya—so'z qo'shish ham konversiya — kategorial ko'chish ham bor (substantivasiya — otlashish), qo'shquloq mingoyoq, ko'yko'z kabi yasalmalarda ham shunday: qo'shquloqli idish — qo'shquloq: egalik bildiradigan -li affiksi bunday yasalmalarda ko'pincha qo'llanmaydi. Qiyoslang: «Qarchig'ay changallim, senga yo'l bo'lsin? (Fozil Yo'ldosh, -li affiksi qo'llangan)

Tarixiy jihatdan qaraganimizda, affiksasiya yo'li kompozisiyadan tuzilgan: o'zak + o'zak+o'zak + affiks (yoki: affiks + o'zak): affikslar aslida mustaqil so'zlardan kelib chiqqan: oshxona, ishxona, tovuqxona, molxona, qabulxona,

pivoxona; Halqobod, Yangiobod kabi otlardagi xona va obod qismlarining affiksga tomon siljiyotganligini qiyoslang. Demak soʻz yasalishi (soʻz yasash yoʻllari, modellari, ularning aktiv-passivligi va boshqalar) tarixan, til tarixining turli davrlariga koʻra, oʻsib-oʻzgarib turuvchi hodisadir.

Soʻz qoʻshib yasashga juda yaqin turgan yasash tiplaridan biri leksik-sintaktik yoʻl bilan hosil qilishdir. Bunda yangi soʻzning paydo boʻlishi soʻz birikmasining, ayrim gaplarning, undagi elementlarning tamoman qoʻshilib-bitib ketib, bir butunlik hosil qilishi xarakterida boʻladi. Masalan, xolbuki (aslda: ega va kesim), oʻzi bilarmon (oʻzi — bilarmon) oʻzbilarmonlik bari-bir (bari — ega, bir — kesim). Koʻrinadiki, bunday yasash frazeologizm bilan ham bogʻliq boʻlib, yangi soʻz yasash soʻz birikmalari-ni va gaplarni leksikalizasiya qilish natijasida paydo boʻladi. Bu yoʻl bilan yasashda affiksasiya ham, konversiya ham ishtirok eta oladi. Masalan, bola daladan qaytganligini eshitib, onasi juda sevindi.

Kalkalash (leksik kalka: boshqa leksik-semantik modeli asosida yangi soʻz hosil qilish) ham soʻz yasashning bir yoʻlidir. Masalan, tilchak (texnika termini) rus tilidagi «yazichok» terminining oʻzbekcha kalkasidir (yazik — til, -ok: kichraytirish affiksi: -chak). Kalkalash oddiy tarjima emas (bunda oʻsha soʻzga mos keladigan soʻz qoʻshiladi: ruka — qoʻl, liso — yuz), chunki kalkalashda yangi soʻz tugʻiladi. Demak kalkalashda tushunchaning oʻzi boshqa tildan olinadi va oʻsha tilda shu tushunchani ifodalovchi soʻzga qarab yangi soʻz yasaladi, lekin bu yasashning materiali — morfemalari shu tilning oʻziniki boʻladi: yangi soʻz boshqa tilning taʼsiri bilan kelib chiqadi. Kalkalashdagi tarjima morfemalar buyicha tarjima qilishdir. Masalan, ledokol — moʻzyorar (lyod — muz, kolot — yormoq), toplivo — yoqilgi (topit — yokmoq), oʻn ikki barmoqli ichak, opriskivatel — changlagich (opriskivat — changlamoq, pul — chang), rastvor — zoitma (rastaplivat — eritmoq, naxodka — topilma (naytis — topilmoq), krovyanoye davleniye — qon bosimi (krov — qon, davleniye — bosim), kostniy tuberkulyoz — suyak sili (kost — suyak tuberkulyoz — sil), polost rta — ogʻiz boʻshligʻi (polost — boʻshliq rot — ogʻiz), soglasniy — undosh (golos — un, ovoz), udareniye —

(udarit — urmoq, udar — urish, zarb) va b. O'zbek tili leksikasining boyishida, ayniqsa, ilmiy terminologiya shakllanishida va rivojlanishida, rus tilidan olingan so'zlarning, shuningdek kalkalashning ahamiyati juda katta. 1. Kalkalashning boshqacha ko'rinishlari ham bor: masalan, o'zbek tilida bir qancha so'zlar shu ma'noda qo'llanadigan ruscha so'zlarning ma'nolariga qarab, yangi ma'nolar olib, semantik jihatdan kengaygan (semantik kalka). Misollar: akkumulyator o'tirib qoldi (o'tirdi — sel, jonli so'zlashuv nutqidan), bu xavaskor shofyor ekzamenda yiqildi.

Fonetik yo'l bilan so'z yasash ikki hodisani ko'zda tutadi: 1. So'zning tarkibida fonetik o'zgarish qilish orqali yangi so'z yaratish. Masalan, tun va kun, bit (yarasi bitdi, ekin bitdi, ish bitdi—tugallandi) va but (tugal, fe'l va sifat), aka va uka, ota (ota) va ada. 2. Urg'uning o'rnini o'zgartirish yo'li bilan yasash. Masalan, yangi — urg'usi keyingi bo'g'inda: «noviy» ma'nosida (sifat)—yangi (urg'usi bosh bo'g'inga ko'chgan): «seychas, tolko-chto» (ravish); hozir (tayyor) — hozir (hozir ketdi, u hozir keldi: ravish). Ko'rinadiki, bunda leksik urg'uning o'z o'rnini o'zgartirishi — fonetik boshqalik so'zning ma'nosiga, kategorial turiga ta'sir qilib, yangi leksema hosil qilish vositasi bo'lgan.

Birinchi yo'l bilan yasash qadimgi hodisalardan bo'lib, hozirgi tilda qo'llanmaydi, lekin qadimda ham keng tarqalgan emas. Bu yo'lning asosiy xarakteri aslida shundan iboratki, predmet, hodisalar, harakatlar, ajralib-farqlanib borishi bilan ularning nomlari ham farqlana borgan. Masalan, bir so'z ham predmetning o'zini, ham uning harakatini bildirgan bo'lsa, keyinroq bular o'zakning fonetik tarkibini o'zgartirish orqali ikki so'zga aylangan (aka-uka, bo'r — bo'z, ko'r — ko'z). Bunda turli fonetik vositalardan foydalanilgan: tovush almashtirish (fonetik sharoit bilan bog'liq bo'lgan tovush almashishlar bundan boshqa), tovushlarning qattiq-yumshoqligi, unlilarning uzun-qisqaligi, undoshlarning takrorlanishi, tovushlarning o'rin almashtirishi kabi. Bular, asosan, fonetik variantlardan (masalan, so'zlarning shevalarga ko'ra bo'lgan fonetik variantlaridan) semantik differentsiatsiya uchun (shuningdek ma'no jilolarini,

stilistik boshqaliklarni bildirish uchun ham) foydalanish tusida bo'lgan. Misollarni chog'ishtiring: ko'p-ko'p (aslda ikki variantdagi bir so'z bo'lgan: ko'p-ko'p — ko'paymoq ortmoq ko'tarilmoq: hamir qo'pdi, hamir qo'pchidi, ko'pik — ko'p + iq hozirgi tilda: ko'p — fe'l: ko'p sifat, ko'p — fe'l: ko'prikni qo'pordi, g'or dinamit bilan qo'porildi, bola o'rnidan turdi — qo'pdi: dialektal chog'ishtiring: yo'q va yo'q o'zaklari: yo'q + qori — yo'qori, yuk + sa + k -yuk+sa+l), qis—siq (ko'zi qi-siq qisqichbaqa it dumini qisib bir siqim va bir qisim, siqib chiqarmoq qisimlab), tosh — tish (qattqlik jihatdan o'xshash), oyoq (nogi) — adoq (nogi va konas), qozon — qozron — koskon (qozonning turi), sila — siyla (oddiy silash ham erkalash, hurmatlash bilan bog'lanadi), izda — ista, yur — djur (har ikkisi bir shevada uchraganda keyingisi kuchaytirish jilosiga ega bo'ladi), qatiq— qattiq (har ikkalasi ham aslda qotgan ma'nosi bilan bog'liq) yo'q (yuqori) —quy (quyi: past), chuk (pastga qarab harakat) — ko'ch (yukoriga qarab qo'zg'alish) chiridi — churidi, ividi — uvidi, yoq (tomon, taraf —dushman)— yov (dushman), yo'l — yur va yor (chog'ishtiring: yur + ga + la, yur + ga ot, yur + t + ish, yur-t + ma + chok), yir(moq) — yor(moq). Chog'ishtiring: yir + t, yirik va yirtiq yirik va yoriq (yorilgan). Qiyoslang: rus tilida nogot (tirnoq) — kogot (changal, parrandaning tirnog'i, masalan, qarchig'ayning changali). Misollar ko'rsatadiki, bu yo'l dastlab, asosan, variantlardan farqlash maksadida foydalanish bilan bog'liq. Buning natijasi so'z yasashga, shakl yasashga olib kelganidek salgina farq qilish (kichik semantik-stilistik jilo) yo dialektal farqni ko'rsatish xarakterida ham bo'ladi. Bularning hammasi qadimda so'zning fonetik turg'unligining nisbatan kuchsizligini, variantlarning ko'pligini va ayrim fonetik o'zgarishlarning ma'no bilan ham bog'liq bo'lganligini ko'rsatadi.

Ikkinchi yo'l bilan yasash tub so'zlarni farqlash tarzida (yangi-yangi) uchramaydi hisob, u ko'proq nisbatan bir tusdagi affikslarni yoki affiks va shu tusdagi yuklamalarni ajratish, shu yo'l bilan so'zlarni farqlash xarakterida bo'ladi: suzma (ot, -ma: ot va sifat yasovchi)—suzma (fe'l: -ma: inkor belgisi), qizgina (-gina: erkalash belgisi)—qizgina (-gina: chegaralash yuklamasi, «faqat»), uyin + a

uyna (-a: fe'l yasovchi affiks) — uyin-a (-a: ta'kid, taajjub, so'roq kabi ma'nolarni ifodalovchi yuklama. Bu o'rinda shu narsa ham xarakterliki, affiks qo'shilganda, o'zakdagi tor unli tushadi, lekin yuklama bilan birikishda tushmaydi), gulsiz (-siz: inkor, yo'qlik belgisi)—gulsiz (-siz: predikativlik belgisi: bolalar, siz gulsiz), qushcha (kichik qush)—qushcha (qushdek kush kabi) va b.

O'ngacha bo'lgan sanoq va tartib sonlar jadvaliga e'tibor bering:

| Sanoq son                               | Tartib son                                    |
|-----------------------------------------|-----------------------------------------------|
| واحد <i>va:xid</i> –bir                 | الأول <i>al-'avval</i> –birinchi              |
| اثنان <i>'isna:ni</i> – <i>ikki</i>     | الثاني <i>as-sa:ni</i> – <i>ikkinchi</i>      |
| ثلاثة <i>sala:sa</i> – <i>uch</i>       | الثالث <i>as-sa:lis</i> – <i>uchinchi</i>     |
| أربعة <i>'arba'a</i> – <i>to'rt</i>     | الرابع <i>ar-ra:bi</i> – <i>to'rtinchi</i>    |
| خمسة <i>xamsa</i> – <i>bes</i>          | الخامس <i>al-xa:mis</i> – <i>beshinchi</i>    |
| سنة <i>sitta</i> – <i>olti</i>          | السادس <i>as-sa:dis</i> – <i>oltinchi</i>     |
| سبعة <i>sab'a</i> – <i>etti</i>         | السابع <i>as-sa:bi'</i> – <i>ettinchi</i>     |
| ثمانية <i>sama:niya</i> – <i>sakkiz</i> | الثامن <i>as-sa:min</i> – <i>sakkizinchi</i>  |
| تسعة <i>tis'a</i> – <i>to'qqiz</i>      | التاسع <i>at-ta:si'</i> – <i>to'qqizinchi</i> |
| عشرة <i>'ashara</i> – <i>o'n</i>        | العاشر <i>al-'a:shir</i> – <i>o'ninchi</i>    |

Ko'rsatib o'tilgan so'z yasash tiplari o'zbek tilida so'z yasash yo'llarining umumiy ko'rinishidir. Biz so'z yasashning hozirgi zamon o'zbek tilidagi unumli tiplarinigina ko'rib o'tamiz. Bular— affiksasiya va kompozisiya — bilan birga, ko'chirib yasash yo'li bilan ham qisman tanishamiz. Misollarni qiyoslang: oldingilar (biror ishda oldinda borayotgan odamlar: oldingi odamlar), qoloqlar (qoloq odamlar).

O'zbek tilida sodda so'zlarning taraqqiyot yo'li o'zak negiz va affikslarning hayot yo'li bilan, ularning xususiyatlari bilan, shuningdek so'z turkumlarining

ba'zi tomonlari bilan bog'lanadi. Quyida shunga doir ayrim nuqtalarni ko'rib o'tamiz(7:145).

1. Affiks orqali so'z yasash o'zbek tilida ilgaridan so'z yasashning eng aktiv yo'li bo'lib keladi. Masalan, -chi (-chilik), -li, -la (-lashtirish) kabi affikslar yordami bilan yasash avj oldi (ayniqsa yangi kirgan so'zlardan yasash). Bu hodisaning sababi mustaqillik davrida turmushdagi, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar, yuksalish bilan bog'liq ravishda o'zbek tilining rivoj topishi, uning ijtimoiy vazifasining kengayishidir. Hayotning taraqqiyoti natijasida yangi so'zlarga talab kuchaydi, bu ehtiyoj o'zbek tili so'z yasash sistemasini o'stirdi, boyitdi: juda ko'p yangi so'zlar paydo bo'ldi. Bu so'zlarning yasalishida rus tilidan kalkalash katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2. Dunyoning deyarli hamma tillarida so'z yasash va so'z shakli hosil qilishning yetakchi vositasi bo'lgan affiksasiya o'zbek tilida suffiksasiya xarakteridadir (unda affiks orqali yasashning yo'qligi, prefikslarning boshqa tillardan olinganligi yuqorida aytilgan edi). Prefikslar yasovchi affiks xarakterida bo'lib, ularning qo'llanish doirasi tor, ularning sinonimlari aktiv (baquvvat — quvvatli, barvaqt — vaqtli, beish — ishsiz, betinim — tinimsiz, beto'xtov — to'xtovsiz, beso'roq — so'roqsiz, noo'rin — o'rinsiz).

Suffiksali so'z yasash hodisasi, ayniqsa ot va sifatlarda kuchli: suvoqchi, terimchi, kombaynchi, gazchi, vodoprovodchi, sutchi kabi. Qiyoslang: arrala, vintla (fe'lda).

3. Shakl yasovchi affikslar, ayniqsa so'z o'zgartuvchilar, so'z turkumlarini, ot va fe'l gruppalarini farqlashda signalizatorlik vazifasini bajaradi. Lekin bunda shakl jihatdan bir xil bo'lgan affikslar ham uchraydi. Masalan, -lar affiksi, bir tomondan, ot turkumining shakl yasovchisi va so'z o'zgartuvchisi, ikkinchi tomondan, fe'lning tuslovchisi (Bolalar ko'chatlarni ekdilar). Yasovchi affikslar ham, ko'pincha ma'lum gruppaning signali sifatida bo'ladi. Masalan, -la affiksi fe'llik belgisi (yasama fe'l). Bunda ikki xolat bor: 1) affiks so'zga kategorial o'zgarish kiritadi, bir turkumni boshqa turkumga ko'chiradi, shu ko'chirishning

vositasi sanaladi. Masalan, tinchlik (ot), jevali (sifat), o'g'itla (fe'l). 2) kategorial o'zgartirish kiritmaydi. Masalan, traktorch, ishchi (Lekin tarixiy planda bu sifatga «ko'chirish» bo'lgan: bunda predmet ma'nosi ham, belgi ma'nosi ham bor: shaxs belgisi orqali ifodalangan: traktorch — traktor bilan ish qiladigan odam, ishchi — ish bilan shug'ullanadigan odam). Bir affiks bir necha turkumning ko'rsatkichi sifatida, ham so'z yasash, ham shakl yasash vositasi sifatida qo'llanadigan bo'lsa, u affiksali omonimiya yo affiksali polisemiya bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, chug'urchuq, kichraytish ma'nosi bilan bog'langan affikslarning so'z yasovchilik va shakl yasovchilik vazifasi: qizilcha (lavlagining turi va kasallik nomi): kichraytish ma'nosi hozirgi zamon tilida ko'proq analitik yo'l bilan ifodalanadi: kichik daryo, kichik tor (past tor), kichik ko'l kabi.

4. Affiks orqali yasash o'zakdan negiz yaratish yoki bir negizdan boshqa negiz hosil qilish bo'ladi. Bu ikki xil morfemaning qo'shilishidir (derivasiya: affiksali so'z yasalishi. Qiyoslang: relyasiya: so'z shaklini hosil qilish). Bu ikki xillik qo'shma o'zakdan yasashda ham saqlanadi. Masalan, ko'zoynak+li. Qiyoslang: Qarchig'ay changalim, senga yo'l bo'lsin? (Fozil Yo'ldosh, qarchiray changal + li + m). Demak yasama so'z hosil qilish shunday ko'rinishlarga ega: 1. O'zakdan yasash (temir + chi): birinchi derivasiya (birinchi negiz). 2. Negizdan yasash (terim + chi): ikkinchi derivasiya (ikkinchi negiz); terimchi + lik: uchinchi derivasiya (uchinchi negiz). 3. Qo'shma o'zakdan yasash (sharshar, manmanlik, temir yo'lchi).

So'zning morfematik tahlilida uning umuman tarkibi, morfemalari aniqlansa (o'qi-tuv-chi-lik), so'z yasash tahlilida so'z yasalma sifatida ikki qismga ajratib qaraladi: ter + im (yasovchi o'zak + yasovchi affiks), terim + chi (yasovchi negiz + yasovchi affiks): terim — yasama so'z, biroq terimchilik so'ziga nisbatan — yasovchi negiz: birinchi yasovchi negiz. Yana: terimchi+lik (terimchi: ikkinchi yasama negiz), o'qituvchilik; sharshara. Ko'rinadiki, so'z yasash tahlilida so'zning shakl qismini tashkil qiladigan elementlar tekshirilmaydi: katta-roq, o'rta-cha, oq-ish kabi ajratishlar so'z yasash tahlili emas, chunki bundagi affikslarda leksik

ma'noni o'zgartirishdan ko'ra grammatik vazifani bajarish ustundir: bular grammatik shaklni ko'rsatadi, bu tushdagi affiksasiya leksema hosil qilmaydi(7:95).

Affiksatsiya so'z yasashning eng unumli tipi bo'lsa ham, lekin uning unumsiz modellari ham bor. Masalan, -chi affiksi bilan yasash — eng aktiv, eng unumli, -na affiksi orqali yasash — kamunum, ko'r+ik, sevin + ch, tin + ch, tinch + i kabi yasashlar unumsizdir.

5.Boshqa tillardan kirgan yasovchilar, dastlab, olingan so'zlarning tarkibida uchraydi (ikki xil morfemaning har biri o'z yasovchi affikslarning qo'llanish doirasi so'z o'zgartuvchi affikslarnikiga nisbatan torroq. Masalan, deyarli hamma fe'l tuslanib, to'la paradigmani hosil qiladi, lekin hamma fe'ldan ham affiks orqali sifat yasala bermaydi. Shuningdek ayrim so'z turkumlaridan yasash juda kam uchraydi: otlarda tashqi yasaliş (ot bo'lmagan so'zlardan yasash) ham, ichki yasaliş (otning o'zidan yasash) ham kuchli, bundan boshqa so'z turkumlarida ichki yasaliş yo'q hisob; ot, sifat, fe'llar orasida bir-biridan yasaliş (tashqi yasaliş) kuchli: mimemalardan ot, sifat va fe'l yasash ham shunday; lekin mimema, son va olmoshlarning boshqa turkumdagi so'zdan yasalmasligi asosiy xolatdir; olmosh va sonlardan fe'l yasash juda kam uchraydi (sizla, senla, sensira. sizsira, ikkilan, birlash) va b.

7.Yasovchi affikslarda polifunksionallik polisemantiklik va omonimlik holati (omorfemalar) ancha keng tarqalgan. Masalan, -oq affiksi: ot yasovchi (qurol oti: o'roq— taroq; bajaruvchi shaxs oti: qaroq — ko'z, jarayon oti: so'roq;, natija oti: chiziq va b.), sifat yasovchi (oppoq, yopiq, yoniq, tarqoq va b.), fe'l yasovchi (chiniq, yo'liq va b.); -chi: terimchi (otdan yasalgan) a'lochi (sifatdan yasalgan), yuz mingchi (sondan yasalgan), manmanchi (olmoshdan yasalgan); -moq: fe'ldan ot yasaydi (quymoq)— fe'lning funksional shaklini hosil qiladi (kiyinmoq); -qich: qisqich (harakat qurolining oti yoki bajaruvchi shaxsning oti; )—surgich (harakat obyekti nomi: suriladigan predmet) va b. Ayrim affikslarning farqlanish holati urg'u orqali ham bilinadi. Masalan, sizsiz (urg'u oxirgi bo'g'inda: to'y sizsiz o'tmaydi, -siz — yasovchi affiks)—sizsiz (urg'u birinchi bo'g'inda: seminarining



rahbari Siz siz,— siz — soʻz oʻzgartuvchi affiks; bu xol-siz affiksini siz olmoshidan ham farqlaydi).

Baʼzan sodda affiks bilan qoʻshma affiks orasida ham formal oʻxshashlik tugʻilib qoladi.

Baʼzan bir affiks turli birikishlarda har xil shaklda uchrashi mumkin. Masalan, qoʻlla (otdan feʼl yasash) — qoʻlda (oʻshaning oʻzi, biroq -la affiksi -da shaklida kelgan: dialektal va tarixiy shakl. Qiyoslang: guldasta, yoʻldasa, hiqirda. Affiksning fonetik sharoitga qarab tugiladigan — fonetik shartlangan — koʻrinishlari (masalan, sifatdash affiksining -gan, -kan, -gʻan, -qan shakllari) ollomorf sanalmaydi.

8. Ayrim hollarda affiksning «ortiqcha» ishlatilish hollari uchraydi. Masalan, (bolani) erkaladi maʼnosida erkalatdi shakli ham qoʻllanadi (asosan dialektal shakl): oʻtimli erkala feʼliga qoʻshilgan -t affiksi, nazariy jihatdan qaraganimizda, feʼlning orttirma darajasini hosil qilishi kerak edi (qiyoslang: uqala), lekin bu oʻrinda bu hol yoʻq (-t oʻz vazifasiga ega emas: u «oʻlgan»—«parazit» affiks boʻlib kelgan). Shuningdek affiks qoʻshilgan va qoʻshilmagan yasalmalarning semantik farqi ayrim xollarda juda kuchsizlanib qoladi, Masalan, Eshon kechasi muridning choʻntagidagi pullarni qoqishtirib oldi, («Ertak»). Chogʻishtiring: qoqishtirib oldi — qoqib oldi yana: joyladi — joylashtirdi. Bunday hodisalar ham oʻz tarixiy va boshqa sabablariga ega.

Baʼzi affikslarning «ortiqchaligi» analogiya natijasida kelib chiqqan boʻladi. Masalan, yoqilgʻi («toplivo») — yonilgʻi («goryuchiy»): yoq — oʻtimli feʼl, -il affiksi — majhul darajasi belgisi, -il affiksi — ot yasovchi, lekin yon feʼli bu oʻrinda -il affiksini olmasligi kerak edi (yon — oʻtimsiz feʼl), -il morfemasi oʻz vazifasiga ega emas. Demak yonilgʻi soʻzida -il affiksining qoʻllanishi yoqilgʻi soʻzining tuzilishiga analogiya yoʻli bilan kelib chiqqan.

9. Affikslardagi koʻp maʼnolilik hodisasi har xil xususiyatlarga ega: baʼzilarining oʻzaro munosabati sezilmas holga kelib, ular boshqa-boshqa affiks boʻlib ketgan (leksik-semantik tipda soʻz yasash kabi), baʼzilarida bu bogʻlanish

uqilib turadi. Bu ma'nolar bir vaqtda emas, balki til tarakqiyotining turli davrlarida paydo bo'lgan: bir ma'no boshqasidan urchib chiqqan. Bunday har xillik affikslarning tarakqiyot yo'lini ko'rsatib turadi. Masalan, sifat yasovchi -li affiksi egalik ma'nosini anglatadi (o'zak-negizdan anglashilgan predmetga egalik: portfelli, bolali kabi), ba'zan ortiqlik ma'nosini ham bildiradi (shu predmetga egalik bilan bog'langan ortiqliq gavdali: gavdasi nisbatan katta, yog'li palov: yog'i normadan ortiqroq). Sifat yasovchi -siz affiksi ham shunday (bolasiz — yorsiz: yog'i kam). Demak bu affiksning ortiqlik (kamlik) ma'nosi semantik ko'chirish, oshirish yo'li bilan egalik (aksi: ega emaslik) ma'nosidan kelib chiqqan. Ichimli (choy), yurishli (yo'l) misollarida ham shunday.

10. So'z yasovchi affikslarning ma'no va vazifalarini tasvirlashda ilgaridan ikki xil yo'l bor: 1. Alfavit tartibida bayon qilish. Masalan, -a: aylan + a, uyin + a (uyna), bur + a, yaltir + a; -v: qishla + v (qishlov), ishlav—ishlov, sayla + v — saylov, o'qi + v — o'quv, o'lcha + v — o'lchov, bura + v — burov (asbob oti); ko'r + k (husn), tuga + l (tugallangan, mukam-mal), to'pla+m, qatla+m va b. Bunday tahlilda, hamma so'z turkumlari birgalikda bir butun sifatida qaralsa, so'z yasovchi affikslar bilan so'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari orasidagi aloqa e'tibordan chetda qoladi, har xil affikslarni ,(yasovchilardagi omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalarini) farqlash ko'zda tutilmaydi. Bunday tahlilni har bir so'z turkumi bo'yicha ayrim-ayrim o'tkazish ham mumkin. Demak bunday tasvirlashda har bir affiks alfavit tartibi bilan ayrim olinib, uning barcha xususiyatlari ko'rsatiladi. 2.Ma'nosiga qarab bayon qilish. Bunday tahlilda har bir so'z turkumining yasovchilari, dastlab, semantik asosda tasnif qilinadi (masalan, ot yasovchi affikslar: bajaruvchi shaxs oti yasovchilar, o'rin oti yasovchilar, belgi oti yasovchilar va b ), keyin har bir affiksning xususiyatlari qarab chiqiladi. Demak bunday tekshirishda sinonim affikslar bir o'ringa to'planadi (chunki tasnifda semantika asosga olinadi), boshqa-boshqa so'z turkumiga kiradigan omonim affikslar turli o'rinlarda karaladi, bu holat bir so'z turkumi doirasidagi omonim affikslarda ham saqlanadi.

Jahon tilshunosligida soʻz yasovchi affikslarning keng tarqalgan tasvirlash yoʻli semantik asosda bayon qilishdir (oʻrniga qarab, birinchi yoʻl ham qoʻllanadi, lekin shunda ham har bir soʻz turkumining yasovchilari ayrim qaraladi). Misol uchun ot yasovchi affikslar: I Ot oʻzaklardan ot yasovchi affikslar: 1) shaxs oti yasovchilar (-chi: tunukachi; -dosh: yoʻldosh, maktabdosh, kursdosh va b.); 2) oʻrin oti yasovchilar (-loq: oʻtloq qumloq; -liq -lik: quruq-lik; muzlik tepalik va b.); 3) belgi oti yasovchilar (-lik: bolalik); 4) predmet oti yasovchilar (-cha: kizilcha); 5) qarashlilik xoslik oti yasovchilar (-lik: bellik, terlik: ot abzallari, yenglik). II Feʻl oʻzaklardan ot yasovchi affikslar: 1) bajaruvchi shaxs oti yasovchilar (-in: yogʻin; -qin: toshqin, uchqun; -qoq: qochqoq); 2) ish oti yasovchilari -im: terim; -v: ishlov); 3) harakat natijasi oti yasovchilar (-im: toʻplam; -n: yigʻin; -q: chiziq; -ma: yorma ); 4) harakat quroli oti yasovchilar (q: oʻroq, taroq; -q: chopqi; -qich: qisqich); 5) harakat obykti oti yasovchilar (-gi: kuydirgi, -qi yoqilgʻi) 6) oʻrin oti yasovchilar (-ma: qaynama, bostirma).

## II BOB

### QO'SHMA SO'ZLAR TUZILISHI TIPOLOGIYASI

#### 2.1. Qo'shma so'zning tarkibiy qismlari tahlili

Kompozitsiya yo'li bilan so'z yasash kompozitalar — qo'shma so'zlar yaratish bo'lib, bunda ikki (yo undan ortiq) so'zning qo'shilishi yangi leksik birlik — leksemani hosil qiladi. So'z yasashning bu tipi ham o'zbek tilidagi aktiv yo'llardandir. Qo'shma so'zning qismlari, tarkibidagi qismlari, ayrim so'z (tub so'z yoki yasama so'z) tusida bo'ladi: bu element shu ko'rinishida boshqa kombinasiyalarda o'zak yo negiz vazifasida kela oladi. Lekin bu elementning ikki holati - ayrim so'zligi va qo'shma so'z tarkibida kelishi (mustaqil so'zligi va so'zning qismi bo'lishi) bir-biridan jiddiy farqlar bilan ajralib turadi. Qo'shma so'zning ko'pi tashqi tomondan «aniqlovchi-aniqlanmish» sxemasidagi so'z birikmasiga o'xshaydi, hatto shunday omonimik hollar ham borki, shu shakldagi kompleksning qo'shma so'zmi yo so'z qo'shilishimi ekanligi turli vositalar orqali aniqlanadi: bunda semantik-grammatik intonasion vositalar farqlovchilik rolini o'ynaydi. Har holda omonimik ko'rinishlar ham to'la, aniq ajralib turish xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, qora qovun: so'z birikmasi va qo'shma so'z: qora tuskdagi qovun va qovunning bir turi. Qiyoslang: baribir kompleksi hozirgi tilda —bir so'z (leksikalizasiya). Lekin u aslda (shuningdek hozirgi tilda ajratilgan holda qo'llangan o'rinlarda) ikki so'zdir: bari (ega), bir (kesim). Birinchi holatda, tabiiy bir so'z — ikki o'zak morfemaning birikib ketishidan tug'ilgan bir so'z sanaladi, lekin u, genetik jihatdan qaraganda, grammatik aloqaga kirishgan ikki mustaqil so'zdir. Qo'shma so'z bir butun leksik ma'no — bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish — grammatik tuzilishining ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi: demak u bir so'zdir, uning qismlari orasida grammatik aloqa yo'q (lekin semantik aloqa bor), u har qanday so'z qo'shilmasida — gapda, so'z birikmasida — bir sintaktik vazifani bajaradi. Qo'shma so'z, sodda so'zlar kabi, tilning bir birligi bo'lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida

foydalanamiz, soʻz birikmasi esa bunday tayyor hodisa emas: u nutq jarayonida maʼlum qoidalar asosida hosil qilinadi. Soʻz birikmasidagi har bir qism, mustaqil soʻz oʻzaro grammatik aloqaga kirishgan boʻladi, demak bu sintaktik hodisadir. Masalan, paxtaning guli: aniqlovchi + aniqlanmish. Soʻz birikmasi bilan qoʻshma soʻz orasidagi fonetik farqlanish sezilarli, jiddiy xarakterga ega emas: odatda, fonetik yaxlitlanish soʻz birikmasida ham, qoʻshma soʻzda ham, asosan, bir tusda boʻladi: yosh bola va tosh bodom komplekslarini qiyoslang. Qoʻshma soʻzning bir turi tugilish jihatidan soʻz birikmasi bilan aloqador, lekin koʻpi mavjud qoʻshma soʻzlarga analogiya yoʻli bilan, qoʻshma soʻzning tayyor modeliga qapab hosil qilingan.

Qoʻshma soʻzlarda ham yasalganlikning umumiy belgilari — chogʻishtirishdagi semantik va shakl bogʻlanish saqlanadi, lekin bu aloqa turli sabablar natijasida (masalan, fonetik oʻzgarish natijasida) sezilmas holga kelishi ham mumkin (soddalanish hodisasi): togʻolcha: togʻolcha — togʻ-olcha — togʻ olucha, ogʻayni — ogʻa-ini, qayni — qayini— qayin-ini, bugun — bu kun, achchuchuv -achchiqchuchuv— achchiq-chuchuk (asli — juft soʻz, bir xil salat, shakarob maʼnosida), bu hodisa jonli soʻzlashuvda koʻproq uchraydi.

Qoʻshma soʻz oʻzining bir qancha xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Endi shularning asosiylarini koʻrib oʻtamiz.

#### I. Qoʻshma soʻzning tarkibidagi qismlarning oʻzaro munosabati:

1) ular orasidagi grammatik munosabat shu tipdagi soʻz- birikmasiga qarab, tarixiy planda belgilanadi; demak sinxronik jihatdan qaraganimizda, orada bunday munosabat faraz qilinmaydi, chunki bu aloqa saqlangan boʻlsa, u kompleks soʻz birikmasi boʻladi, ikki soʻz sanaladi. Masalan, shakar qop(qoʻshma soʻz, turgʻun holatga ega, nutq jarayonida hosil qilinmaydi) shakarning qopi (soʻz birikmasi). Qismlarning grammatik aloqasi, tugʻilish eʼtibori bilan ikki xil: a) tobelanish (komponentlarning munosabati aslida tobelanish yoʻlini koʻrsatadigan qoʻshma soʻzlar): ariq, ilon, suv ilon; qoʻy tikan, dala chumchuq, shahar chumchuq yoʻl chumchuq; yoʻl pashsha, yoʻl chivin, it pashsha kabi; b) tenglanish

(qismlarning munosabati aslida tenglashishga asoslangan bo'ladi): o'tin-ko'mir(yoqilg'i), ota-ona, mosh-gurunch, soch-soqol; tarkibli sonlarda: o'n besh(o'n va besh. Qiyoslang: besh yuz — yuz besh: birinchisi—tobelanish, ikkinchisi — tenglanish: yuz va besh). Bu ikki xil bog'lanishni chog'ishtirsak bog'lanish — birikishning nisbatan tobelanishda kuchli ekanligini ko'ramiz: o'tin-ko'mir tipidagi komplekslarda qismlarning nisbatan ayrim-ayrimligi aniq sezilib turadi.

Qismlarning bog'lanish yo'llari, ularda bog'lanishning turli vositalarining ishlatilishi ham bir xil emas: amorf holda (affikssiz) bog'lanish, affiks, yordami bilan bog'lanish (to'y boshi, so'z boshi kabi). Affikssiz bog'lanish eng qadimgi, sodda yo'l bo'lib, u jonli — so'zlashuv nutqida ko'p uchraydi.

2) Qismlarning semantik munosabati har xil: xoslik munosabati (it pashsha, ot to'rva), o'xshashlik (tosh ko'mir, tosh nok, anjir shaftoli, karnay gul), o'ringa munosabat (qo'qon gul), biror belgiga munosabat (achchiq olma), miqdorga munosabat (mingoyoq qirqog'ayni), harakat va obyekt munosabati (beshik tervatar, muz yorar, yer teshar). Bunday munosabatning turi ko'p: (bular har bir turkumning o'z ichida tahlil qilinadi) birinchi qism ikkinchisini semantik jihatdan oydinlashtiradi — chegaralaydi (ilon — umuman, o'q ilon, suv ilon — shuning turlari), bu bilan bir jinsning ichidagi qismlar — tur ma'nosi ham kelib chiqadi. Bularda ma'nolarning o'zaro chatishish hodisasi ham bor(8:68).

Qismlarning ma'no munosabati butun kompleksning — tarkibning material tomoniga, so'z turkumiga, ham bog'liq. Masalan, xoslik (keng ma'noda) bildirishda yasaliş ot + ot modelida (qo'l arra, qo'l mashina, oyoq mashina kabi), belgiga munosabat bildirishda sifat (yoki: shu vazifadagi boshqa so'z) + ot modelida (sassiq sarimsoq — chesnok oq juxori, ko'k no'xat kabi), miqdorga munosabat bildirishda son (yoki: miqdor bildiruvchi boshqa so'z) + ot modelida bo'ladi.

2. Ba'zan qo'shma so'zlar tashqi tomondan bog'li — turg'un, barqaror birikma xarakteriga ega bo'ladi: temir yo'l, temirdan qilingan hamma yo'l ham

temir yo‘l deyila bermaydi, chunki temir yo‘l kompleksi toraygan—maxsuslangan), devor soat (bunda ham maxsuslanish bor). Qo‘shma so‘zning leksik-semantik (murakkab tushunchani bir butun holda ifodalovchi) va grammatik butunligi, tilning tayyor materiali sifatida bo‘lishi, struktura va semantik vazifa tomonidan ayrim so‘z bilan bo‘lgan yaqinligi uni turg’un birikma tusiga kirsam ham, lekin bular tilning nominativ vazifani bajaradigan bir yaxlit elementidir. Demak tashqi tomondan turg’un birikma tusiga egalik ularning bir tomoni bo‘lib, ular bu holatda ham qo‘shma so‘z bo‘la beradi.

Turg’un birikma odatda ko‘chgan ma‘noni ko‘rsatadi (lekin bunday ko‘chish turg’un birikma bo‘lishning sharti sanaladigan doimiy belgi emas). Qiyoslang: zangori olov (gaz), zangori kema (paxta terish mashinasi); qush tili (bir xil ovqatning nomi), yer yong‘oq, bosh barmoq o‘rta barmoq. Ular so‘z birikmasidan shu tomoni bilan ham ajraladi: so‘z birikmasi bunday xususiyatga ega emas. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, qo‘shma so‘zning yasama so‘z bilan ham, so‘z birikmasi bilan ham (ayrim hollardagi tashqi bir xillik), shuningdek turg’un birikmalar bilan ham aloqasi bor.

3. Qo‘shma so‘zning asosiy qismi ikki qismlidir. Bundagi har bir qism qanday tusda bo‘lishiga (o‘zak + o‘zak, o‘zak + negiz va b.), bu qo‘shilishda ayrim so‘zlik holatidan farqlanishiga va boshqa xususiyatlariga (yangi ma‘no, shakl jihatdan oxirgi qismininggina o‘zgarishi, oraga so‘z kirmasligi, tartibining, odatda, turg’un bo‘lishi va b.) qaramay, mustaqil leksemalik ho-lati bilan munosabatini saqlab turadi, u so‘z tusida bo‘ladi. Ikkidan ortiq so‘zdan tuzilgan qo‘shma so‘zlar, umuman, kam uchraydi, shuningdek unga (juft so‘zga ham) affiks qo‘shish yo‘li bilan (qo‘shma o‘zakdan) so‘z yasash hodisasi ham keng tarqalgan emas. Masalan, yarim oroldagi (o‘simliklar), tish-tirnoqli (tish-tirnoq shakli ayrim qo‘llanmaydi: u bog‘li morfema). So‘zning tarkibi uzaygan sayin uning qisqalikka intilish an‘anasi bu o‘rinda ham seziladi (sariq yog‘ — sariyog — capyog‘, qora yog‘och — qayrag‘och). Qo‘shma so‘zning tarkibida uchraydigan fonetik o‘zgarishlar (qismlarning tutashgan o‘rnidagi turli o‘zgarishlar, tovush tushishi va

b.), umuman olganda, affiksasiyadagi fonetik o'zgarishlar bilan o'xshash, lekin bunday o'zgarishlarning doirasi qo'shma so'zlarda nisbatan tor. Misollar: bora oladi — boroladi (boraladi: dialektal shakl), bosh barmoq,— boshmaldoq osh pichoq,— achpichoq: sh-ch-ch, mosh kichiqiri—mochkichiri. Ko'rinadiki, bunday o'zgarish bilan bog'liq holda soddalanish tug'ilishi ham mumkin.

Qismlarning soni va boshqa ayrim xususiyatlar jihatidan qo'shma fe'llar (ko'makchi fe'lli turi) boshqacharoq holatga ega: uch (ba'zan ortiq) qismli bo'lish bularda nisbatan ko'proq uchraydi: aytib bera qoldi, so'zlab tura berdi, aytib bera boshladi (grammatik jihatdan ularning hamma ko'rinishlari ham, baribir, ikki qismli bo'ladi): ko'makchi fe'llarning asosiy qismi o'z mustaqil so'zlik holati bilan bo'lgan bog'lanishini yo'qotib, so'z shakli (analitik shakl) hosil qilish vazifasini bajarishga o'tgan (ba'zilarigina bu aloqani hali yo'qotmagan); bu kompleksdan odatda affiksasiya yo'li bilan so'z yasalmaydi.

4. Qo'shma so'zning ma'nosi undagi qismlarning semantik xususiyati va ichki munosabatning xarakteriga bog'liq: qismlar, odatda, o'z asl ma'nosi — mustaqil holati bilan aloqasini yo'qotmaydi (ko'chgan ma'no boshqacha xususiyatga ega). Masalan, oq o'rik (o'rikning turi), qo'l arra, uch burchak (termin). Bunda ma'no umumlashish jihatidan qaraladi. Masalan, qo'l arra va qo'l soat (keng ma'noda: xoslik bildiradi, holbuki, bular semantik jilosi bilan farqlanadi), muz yorar, tovon teshar (harakat va uning obyekti): ot + fe'l: it + qarash: Boy menga it qarash qildi (G'afur G'ulom), harakat va uning belgisi: ravish vazifa-sidagi ot + harakat oti (bunday qo'shilishlarni ko'rsatishda ot, sifat, fe'l kabi, so'zning leksik-grammatik kategoriyasini ko'rsatadigan, terminlar shartli ravishda—o'sha so'zlarning mustaqillik holatidagi turkumiga qarab ishlatiladi, xolbuki bular qo'shma so'z tarkibida ayrim so'z emas, balki so'zning qismidir). Ko'rinadiki, qo'shma so'zning ma'nosi qismlarning turi kaysi leksik-grammatik kategoriyaga kirishi bilan ham bog'liq(8:147).



5.Qo'shma so'zlar ot, sifat, son, ravish va qisman fe'llarda keng tarqalgan. Qo'shmalik holati yordamchi so'zlarda ham uchrab qoladi.

6.Qo'shma so'z yasash tez rivojlandi, chunki turmushdagi, ongdagi ulkan o'zgarishlar natijasida yangi so'zlarga talab tug'ildi. Yasalgan qo'shma so'zlarning, umuman, yasalmalarning ichida rus tilidan kalkalash yo'li bilan (boshqarma, o'rinbosar, safdosh kabi) hosil qilinganlari ham ko'p.

7.Qo'shma so'zning qismlari o'z turg'un tartibiga ega. Masalan, otlarda ular, odatda, aniqlovchi + aniqlanmish tartibida o'rinlashgan bo'ladi (tish cho'tka, ko'k no'xot, qizil olma).

8.Qo'shma otlarning bir qismi konversiya hodisasi bilan bog'lanadi (konversiya—bir leksik-grammatik kategoriyadagi so'zning boshqa kategoriyaga ko'chishi). Masalan, sifatning otga o'tishi: Bron teshar (bron teshadigan o'q); muz yorar (muzni yorib o'tadigan paroxod), bo'ri kalla (qovunning bir turi: bo'ri kalla qovun: bo'rining kallasiga o'xshagan qovun), qizilurug' (bu ham qovunning nomi, qizil urug'li qovun), qo'sh quloq (bir xil idishning nomi: qo'sh quloqli idish) kabi.

Qo'shma so'zning yuqorida, asosan, bir turini (keng ma'noda «aniqlovchi + aniqlanmish» shaklida hosil bo'lgan turni) — aniqlovchili qo'shma so'zlarni ko'rib o'tdik. Qo'shma so'z termini, bundan tashqari, juft so'zlarni (ota-ona, qovun-tarvuz kabi), qisqartma so'zlarni (MTS—Mobil telefon stansiyasi, BMT — Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi), shuningdek reduplikasiya, so'z takrori yo'li bilan hosil qilingan so'zlarni (kuku: qush kabi) ham o'z ichiga oladi. Juft so'zlar va reduplikasiya yo'li bilan yasalgan so'zlar qo'shma so'zning boshqa turlaridan ancha keskin farqlanadi.

So'z birikmalarining va qo'shma so'zlarning kiskarishidan ham yangi so'z hosil bo'lishi mumkin (Mobil telefon stansiyasi—MTS kabi). Bunday so'zlarning (abbreviaturalarning—qisqartma so'zlarning) yasalish yo'li abbreviasiyadir. Bunday yo'l bilan so'z yasash o'zbek tilining mustaqillik davrida erishgan yutuqlaridandir. Rus tilidan olingan bu so'z yasash yo'li

ixchamlik bilan xarakterlanadi: u ekonomiya prinsipiga juda mos keladi. Uning nomi rus tilidan kalkalash yo‘li bilan yasalgan: qisqartma qo‘shma so‘z: qisqartirilgan qo‘shma so‘z. Bular qo‘shma so‘zning qisqartib biriktirish yo‘li bilan yaratilgan bir ko‘rinishi bo‘lib, bir so‘z kabi qo‘llanib, o‘zi maxsus affikslar ham oladi. So‘z yasashning bu turi ot turkumiga xosdir.

Ingliz tilidan olingan so‘zlar ichida abbreviaturalar ham bor, bular ham o‘zbek tilini boyitib kelmoqda. O‘zbek tilida ruscha-internasional so‘zlar qatlamining o‘sa borishi, leksikani rivojlantirish bilan birga, xalklarni va tillarni yaqinlashtirib, qisqartma so‘zlarning to‘la shaklining ham o‘zlashib, natijada, bunday leksemalarning qo‘shma so‘z sifatida o‘qilishiga yo‘l oladi. O‘zTAG (O‘zbekistan telegraf agentligi), O‘zdavnashr (O‘zbekistan davlat nashriyoti), avtozavod (avtomobil zavodi), SamDChTI (Samarqand davlat chet tillar instituti) va b.

Takrorning ko‘rinishlari ko‘p. Bunda dastlab ikki narsa farqlanadi: takror (odatdagi takror) va ikkilanish. Oddiy takror ma‘noni kuchaytirish, intensivlikni, emosional buyoqni bildirish uchun xizmat qiladi. Bunda ba‘zan ikki marta takrorlash ham uchraydi (9:67). Masalan, tezroq, tezroq yur: tezlik ma‘nosi kuchaytiriladi (qiyoslang: tezroq yur, tezroq ayting, ayting, bugun yomg‘ir yog‘masinda). U tez-tez gapirdi (qiyoslang: u tez gapirdi): bu takror «ikkilanish» bo‘lib, u harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Quyidagi misollarni chog‘ishtiring: otasiga ayting, ayting, jiddiyroq ayting, tushuntiring.— U o‘ylab-o‘ylab, bir fikrga keldi (o‘ylab-o‘ylab: uzoq o‘ylab), nima olding? (bir predmet) — nima-nima olding? (ko‘p predmet, nima-nima olding?—Nimalar olding? Takror orqali ko‘plik ma‘nosi ifodalangan). So‘z takrorining bu ko‘rinishi so‘z yasash hodisasidan farqli. Yana ayrim misollarni chog‘ishtiramiz: Tur-tur, ketamiz,—dedi akasi («Ertak»).

Anglashiladiki, reduplikasiya, so‘z takrori, o‘zbek tilida ikki xil xarakterga ega: so‘z yasash vositasi va grammatik vosita. U ko‘pincha grammatik vazifani

bajaradi: predmetning ko‘pligi, belgining oshirilishi, ma’noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi va uzoq davom etishi va b. (so‘z yasash vazifasini bajarishi ayrim hollarda uchraydi).

Odatdagi takror va ikkilanish (tak-tuq kabi) farqli bo‘lib, so‘z yasash hodisasi bilan keyingisigina bog‘lanadi. Ikkilanish, umuman, so‘z qo‘shishning bir ko‘rinishi, lekin u aniqllovchili qo‘shma so‘zdan (masalan, besh yillik) tarkibining takrorlangan bir xil elementdan iborat bo‘lishi (odatdagi qo‘shma so‘zda bu xol yo‘q) va bu elementlar asl bog‘lanish yo‘li jihatidan farqlanib turadi.

Takror ikki xil: to‘la takror (katta-katta kabi) va qisqa takror (kap-katta kabi). Qisqa takror so‘z yasamaydi, balki so‘z formasi hasil qiladi (qizil—qip-qizil kabi). Takror orqali qo‘shma so‘z hosil qilish to‘la takrorda uchraydi.

Takrorning tarkibidagi qismlarning amorf holda kelishi (taq-taq, taqir-tuqur kabi) yoki orada kuchaytiruvchi elementning bo‘lishi (taq-taq, taqira-tuqur) bir qancha xususiyatlarga ega: oradagi elementning ravish yasovchi affiks bilan bog‘lanishi taqqa to‘xtadi: taq + a, taq-taq to‘xtadi kabi), kuchaytiruvchi bo‘lib kelishi va qisman biriktirishga yordam berishi, bog‘lanishni kuchaytirishi (taraqturuq; taraqa-turuq, taqir-tuqur, taqra-tuqur, shaqir-shuqur kabi; keyingi xolda birinchi qismning oxirgi bo‘g‘inida ikkinchi darajali urg‘uning o‘rni aniqroq seziladi) va b. Lekin oradagi element (- a) bu yo‘l bilan so‘z yasash hodisasini o‘zgartirmaydi.

Takror so‘z yasash vositasi bo‘lganda, so‘z qo‘shish hodisasi bilan o‘xshashlik tug‘diradi (qiyoslang: kuku (qush) — Ko‘ksuv (joy oti); grammatik vosita bo‘lganda esa, affiksasiya hodisasi bilan yaqinlashadi. Bunday o‘xshashlik yaqinlik struktura, ma’no, vazifa jihatidandir. Qiyoslang: kim-kim keldi?—Kimlar keldi? Ko‘plik birinchi holda so‘z takrori orqali, ikkinchi holda esa affiks orqali ifodalangan. Bu holat (takror yoki affiks qo‘llash) turli tomonlari bilan ajraladi: ba’zan biri ikkinchisining o‘rnida qo‘llana oladi (lekin stilistik jihatdan farqlanadi: birinchisi jonli—so‘zlashuv holatiga mos keladi), ba’zan har ikkalasi bir momentda, bir yasalmada qo‘llanadi (kuchaytiruv: umuman, bir ma’noning ikki

vosita bilan, qaytadan ikki marta ifodalanishi, ekspressiya, kuchaytirish, oshirish vazifasini bajaradi), ba'zan ularni almashtirib bo'lmaydi.

Bu qadimgi yo'l bilan hosil qilingan so'zlar (-cha: -chuv — shovqin ma'nosida, ba: -bu — bu ham shovqin-suron so'zlashuv stilini bildirib turadi va taqlid so'zlardan yasashda, ko'pincha, emosional tusga ega bo'ladi. Bunday yasalishning bobov kabi ko'rinishlarida qismlar juda birikib ketgan, o'rniga qarab odatdagicha, affikslar ham qabul qiladi.

Bunday yo'l bilan yasash bir qancha ko'rinishlarga ega:

1. Taqlid so'z ikkilanib, shu tovush bilan xarakterlanadigan predmetning nomi hosil bo'ladi: predmet, hodisa ovoz belgisi — shuni ko'rsatuvchi so'z orqali ataladi. Misollar: shaqshaq (qushning nomi. Qiyoslang: ola shaqshaq kora shaqshaq), bobov (bov+bov:it), chu-chut (chut + chut: bedana ovida ishlatiladigan bir xil predmet: bedanani chaqiradi), paqpaq (bolalar o'yinida), poppop (poppop: tikish mashinasi; oyoq mashina, popop mashina ham deyiladi. Bu so'zning aslida Popov familiyasi bilan bog'langan bo'lishi ham mumkin), patpat (motosikl), bibip (bipbip: avtobus), tuktuk (qizil ishton: qush), biyovbiyov (qush), kuku (musicha), tutu (tovuq), dudut (dutdut: yengil mashina), lik-lik bir xil ko'kat: petrushka). Bunday so'zlarning bir qismi tarkibi sezilmas holga kelgan (ko'pincha fonetik o'zgarish natijasida: soddalanish). Masalan, chumchuq so'zi aslida — etimologik jihatdan — chip-chip mimemasi bilan bog'lanadi.

Bu tipda sifat ham yasaladi. Misollar: shikshik tugma (pis-pis tugma ham deyiladi; bu kompleks — bir qo'shma ot), chakchaq odam (quvnoq odam: qiyoslang: chaqchaqa yulduz: lekin bu chaqnamoq bilan bog'liq, asli tovushga taqlid so'z bilan emas, balki obrazga — holatga taqlid so'z bilan aloqador), liplip chiroq (qadimgi qora chiroq).

Tovush belgisi orqali atash ba'zan takrorsiz ham bo'ladi (miyov — mushuk kabi), demak bobov tipidagi yasalishlarda shuning ikkilanishini ko'ramiz (miyov-miyov, bov-bov).

2.Ot ikkilanib, shu soʻz ifodalagan predmet bilan bogʻlangan uyin nomini (bolalar oʻyini) hosil qiladi. Masalan, ot ot (koʻpincha ot ot — akam shaklida qoʻllanadi, uril bolalar oʻyini), xola-xola (xolaxolakam; qiz bolalar oʻyini). Bolalar nutqidagi bu yasashga analogiya bilan, shu modelda, hosil qilingan yangi oʻyin nomlari (bolalar nutqida, oʻyinning oʻzi ham analogiya bilan yaratilgan): kino-kino, bogʻcha-bogʻcha, taksi-taksi, doktor-doktor, mashina-mashina.

Bu yasashda ham takrorning oʻz maʼnosi bor: oʻyinning nomini otning oʻzi koʻrsatadi, ikkilanish esa bu oʻyinning ikki tomon bilan (ularning shunga bogʻliq boʻlgan harakatni navbatma-navbat bajarishi bilan) bogʻliq ekanligini bildiradi, demak bu oʻrinda ham harakatning takrorini ifodalash hodisasini koʻramiz(10:183). Qiyoslang: olmoshning ikkilanishi orqali yasalgan manman soʻzida ham takrorlanish maʼnosi bor.

3.Feʼlning takrorlanishi (tur-tur: turish) koʻchish orqali jarayon nomi hosil qilganda ham shu hodisani koʻramiz: qoch-qoch (qochish), quv-quv (quvish) kabi. Bunday jarayon nomi shu harakat uchun xarakterli boʻlgan tovushni bildiradigan taqlid soʻzni ikkilash orqali ham yasaladi: kars-kurs, kasir-kusur (kar-sir-qursir), kasir-kusir (karsir-koʻrsir). Bu yoʻl bilan sifat ham yasaladi (shatir-shutur tovushlar kabi).

4.Oʻqtin-oʻqtin (qarab qoʻydi), vaqt-vaqt (u vaqti-vaqti bilan kelib turadi) kabi yasashlarda, ravish yasashda ham, soʻz takrorining maʼlum vazifasi bor.

Juft soʻzlar tuzilishiga koʻra ikkilanish yoʻli bilan yasalgan soʻzlarga ancha oʻxshasa ham, aniqlovchilik tipidagi qoʻshma soʻzlardan bir qancha tomonlari bilan ajralib turadi:

1.Juft soʻzning qismlari orasidagi grammatik aloqa, bogʻlanish, aslda, tenglanish boʻlib (qiyoslang: togʻ-tosh.: togʻu tosh, togʻ va tosh), aniqlovchili qoʻshma soʻzlarda tobelanishdir.

2.Aniqlovchili qoʻshma soʻzda qismlarning tartibi, odatda, grammatik rol oʻynaydi: ularning bir modelning oʻz doirasida oʻrin almashtirishi grammatik holatni oʻzgartiradi (masalan, osh qovoq: aniqlovchi + aniqlanmish — qovoq osh:

aniqlovchi + aniqlanmish); juft soʻzlarda esa bu hodisa uchramaydi (uning qismlari grammatik jihatdan bir xil holatda boʻladi): juft soʻzlarda baʼzan qismlar grammatik va semantik holatlarni saqlagan holda oʻrin almashtira oladilar (goʻsht-yogʻ, yogʻ-goʻsht kabi). Ularning oʻrin almashtirishlari mumkin boʻlmasa, uning sababi semantik yo boshqa xarakterda boʻladi, lekin grammatik xarakterda boʻlmaydi.

3.Urgʻu jihatidan ham farqlanadi: oxirgidan boshqa komponentda ikkinchi darajali urgʻuning boʻlish holati koʻproq juft soʻzda uchraydi (qiyoslang: qovun poliz — qovun-tarvuz). Umuman , fonetik birikish, zichlik yaxlitlanish nisbatan juft soʻzda kuchsiz boʻladi.

4.Qismlarning material-kategorial turi jihatidan ham farqlanadi: juft soʻzning qismlari soʻz turkumi jihatidan, odatda, bir xil boʻladi: ot + ot (yoki ot vazifasida qoʻllangan boshqa soʻz), sifat + sifat kabi.

5.Qismlarning har jihatdan birikishi — payvand boʻlib ketishi juft soʻzlardagiga qaraganda «aniqlovchili qoʻshma soʻz»larda kuchli. Juft soʻzning qismlari soʻz oʻzgartuvchi affikslarni ayrim-ayrim olish holatiga ham ega (otasi: otasi-onasi). Baʼzi tiplarda bu affiksning har ikki qismga ayrim-ayrim qoʻshilishi shart. Bu bilan u qismlarning nisbatan ayrimligi kuchayadi.

Baʼzi hollarda bu shakldagi kompleks «aniqlovchili qoʻshma soʻz» ham, juft soʻz ham boʻlishi mumkin. Bu semantik kontekstual va intonasion xususiyatlarga qarab aniqlanadi. Misollar: 1. Kuyov uril (Seni kuyov uril qilamiz (Fozil Yoʻldosh): Uril deb qabul qilingan kuyov (aniqlovchili qoʻshma soʻz) kuyov-uril (juft soʻz). 2. Joʻja xoʻroz (kichik xoʻroz)—joʻja-xoʻroz (juft soʻz). 3. Tun kecha (yarim kecha, korongʻi kecha: aniqlovchili qoʻshma soʻz) tun-kecha (juft soʻz), qora sariq , (aniqlovchili qoʻshma soʻz: qora jiloga ega boʻlgan sariq rang) —qora-sariq (juft soʻz). Qiyoslang: kuyib-kuyib kompleksi: 1) reduplikasiya (harakatning takrori yoki uzoq davom etishi maʼnosini bildiradi); 2) analitik feʼl: harakatning oʻrinsiz bajarilganligini — bajarilmasligi kerak boʻlgan ishning bajarilganligini bildiradi.

Juft soʻzlar turli sabablar (koʻpincha, fonetik oʻzgarishlarning taʼsiri) bilan soddalanish hodisasiga uchrashi ham mumkin: achchuq-chuchuk (yuqorida tahlil qilingan) — salat, ogʻa-ini (juft soʻz) ogʻayni, oshiq mashiq ( eshik-romlarning shap-niri), oshiq-maʼshuq (sevishganlar: juft soʻz). Oshiq-mashiq kompleksi tashqi tomondan oʻzgargan takrorga oʻxshaydi (oshiq-moshiq: hayvonning suyagidagi oshiq-moshiq tovush orttirib takrorlash: oʻrik-moʻrik kabi). Oshiq-maʼshuq kompleksining fonetik oʻzgarishi bilan tugʻilgan shakli analogiya yoʻli bilan soʻz takroriga oʻxshab qolgan: ovoz-movoz (ovoz-povoz)—oshiq-moshiq. Demak bu oʻrinda unlining oʻz uzunligini yoʻqotishi qismlarning zichroq birikishiga yordam bergan, fonetik oʻzgarish, har xillik semantik differensiasiya uchun xizmat qilgan (oshiq-maʼshiq sevishganlar, oshiq-mashiq sharnir).

Juft soʻzlar — kopulyativ tipdagi qoʻshma soʻzlar — deyarli hamma soʻz turkumiga xos, lekin u ot, sifat va ravish turkumlarida koʻp uchraydi: ota-ona, kirim-chiqim, borish-kelish, erta-kech, yer-koʻk oq-qora rang (oq qora rang kompleksi boshqa), past-baland gaplar yuqori-quyi gaplar (har xil, yaxshi-yomon gaplar), besh-olti, oʻttiz-qirq va b. Feʼllar juft formaga ega boʻlganda, keyingi element modifikatorlik rolini oʻynaydi: u soʻzning analitik shakliga toʻgʻri keladi, lekin har ikki element bir xil shaklda boʻladi: oʻqidi-tashladi, oʻqiysan-tashlaysan, aytding-qoʻyding kabi. Bunday kompleksda ikkinchi qism vazifasida qoʻllanadigan elementlar sanoqlidir (tashla, chiq qol, qoʻy va b.).

Juft soʻzlarning asosiy semantik xususiyati umumlashtirish, jamlikni bildirishdir. Juftlashish shu talab natijasida kelib chiqqan. Misollar: olma-oʻrik (xoʻl mevalar), jiyda-mayiz (quruq mevalar). Demak shu turdagi hamma predmetlarning jamini bildiruvchi jins oti hosil boʻladi. Qiyoslang: u uyga kirib chiqdi: kirib chiqmoq — kirish va chiqish harakatlarining umumiy nomi, yana: borish-kelish: aloqa, munosabat. Juft soʻzlarning qismlari oʻz xarakteriga koʻra har xil boʻladi. 1. Har ikki element ham yakka xolda ayrim maʼno bera oladigan mustaqil soʻz boʻladi: soch-soqol, yer-suv, yer-koʻk, qoʻl-oyoq, bosh-oyoq, upka-jigar va b. 2. Bir element (odatda keyingisi) bugungi tilda ayrim qoʻllanmaydi,

yakka xolda ma'no ber-maydi: idish-oyoq kiyim-kechak ko'cha-ko'y, bozor-o'char va b. Bularning keying elementi ham aslida mustaqil so'z bo'lgan: u yo eskirib, iste'moldan chiqqan, yo boshqa tildan olingan so'z bo'ladi.

3. Har ikki element ham yakka holda qo'llanmaydi, faqat juftlashib keladi: ikir-chikir, g'idi-bidi, chirtin-pirtin kabi. Bularning asli etimologik tahlil orqaligina aniqlanadi.

Birinchi tur («mustaqil so'z + mustaqil so'z»)ning qismlari semantik jihatdan bir necha xil bo'ladi: 1. Bir turdagi, yaqin predmetlarning nomlari (umuman, shu semantik xarakterdagi ikki so'z): mosh-gurunch, arpa-bug'doy, qoshiq-tovoq, qosh-ko'z, oltin-kumush, qovun-tarvuz kabi. 2. Sinonim so'zlar: kuch-quvvat, asta-sekin, kekxa-qari kabi. 3. Butun va bo'lak umum va oydin qism nomlari: oy-kun, vaqt-soat kabi. 4. Antonim so'zlar: kecha-kunduz, yaxshi-yomon, katta-kichik kelish-ketish, yosh-qari, baland-past kabi.

Umumlashtirish, jamlash ma'nosini ifodalash juftlashishning asosiy semantik belgisidir. (Qiyoslang: yaxshi-yomon: hamma ma'nosida — jamlovchi ot): odatda, qismlarning ma'nolari asosida yangi ma'no kelib chiqadi: og'iz-burun, lab-lunj, tish-tirnoq; ko'z-kuloq, (ko'z-quloq bo'lib turmoq: asrab — qo'riqlab turmoq) va b. Bunda doim ma'noning kengayishi shart emas. Demak juft so'zlarda: 1. Ma'no kengayadi: juft so'zning ma'nosi qismlarning semantik jamligidan keng bo'ladi. Masalan, qozon-tovoq (shularning atrofida, shular bilan bog'langan predmetlarni ham o'z ichiga oladi: lagan, kosa, qoshiq, cho'mich, kapkir va b.). 2. Ma'no kengaymaydi, lekin umumlashish, jamlik ifodalanadi: har ikki qismdan anglashilgan predmetlarning umumiy nomi kelib chiqadi. Masalan, ota-ona, aka-uka, tun-kun, («sutki», bir sutka). Bular — kengayish, umumlashish—juft so'zlarning umumiy semantik xususiyatidir. Umumlashtirish xususiyati birinchi holatda (ma'no kengayganda) ham saqlanadi. Bu ma'no turli ayrimliklarga, jilolarga ega bo'ladi. Masalan, predmetlarning umumlashgan nomi (jins oti), harakatlarning umumlashgan nomi (borish-kelish, olish-berish, qo'yish-chiqish, urish-so'kish kabi) va b. Sonlar juftlashganda, undagi umumlik chama, taxmin,



noaniqlik mazmunlari bilan bog'lanadi: uch-to'rt, o'n-o'n besh, yigirma-o'ttiz kabi. Asta-sekin, kuch-quvvat, keksa-qari tipidagi juftlik (sinonimik juftlik) qismlarning semantik jihatdan bir-birini izohlashi, kuchaytirish xarakterida bo'ladi, stilistik rol o'ynaydi; antonimik juftlashish (yaxshi-yomon, katta-kichik, yosh-qari), odatda, umumlashtirish xususiyatiga ega bo'lad (11:48).

Juft so'zning tarkibidagi elementlarning, qismlarning, o'rinishuvi — tartibi, odatda, shunday holatlarga asoslanadi:

1. Kam bo'g'inli, tarkibi qisqa qism avval keladi: soch-soqol, er-xotin, chol-kampir, mosh-guruch, tosh-tarozi, taxta-uqlog'i, qo'y-ko'zi va b. Bu tartib so'zda urg'uning oxirgi bo'g'inda bo'lishi bilan bog'liq.

Bo'g'in soni bir xil bo'lsa, unli tovush bilan boshlanadigan qism avval keladi (talaffuzga oson): osh-non, osh-suv ko'mir, uyin-kulgi, eshik-deraza, oltin-kumush, ota-bola, achchiq-chuchuk va b.

Hap ikki qism ham undosh tovush bilan boshlangan bo'lsa, jarangli portlovchi tovush bilan boshlanadigani avval keladi: sigir-buzoq so'roq-javob, san-man (ikkalasi san-manga borishdi), savzi-piyoz, bosh-qosh (u to'yda bosh-qosh —bo'lib turdi) va b.

Bu qoidalar asosiy holatni ko'rsatadi: ayrim juft so'zlarda bundan boshqacha ko'rinishlarga ham duch kelimiz. Masalan, o'g'il-qiz: kam bo'g'inli qism keyingi o'rinda kelgan. Bunday hollarda quyidagilarni ham e'tiborga olish zarur bo'ladi: 1. Asosiy qoidaga muvofiq keyingi o'rinda kelishi lozim bo'lgan ayrim qismlar semantik xususiyatiga, ahamiyatiga, predmet, hodisa-voqyealar orasidagi logik izchillikka va shu kabi holatlarga ko'ra birinchi o'rinda keladi: xotin-qiz, o'g'il-qiz, olma-nok, nina-ip, yigit-qiz, yumaloq-yassi, o'tin-cho'p, erta-kech, yiqila-qo'pa, sekin-asta (asta-sekin shakli bilan birga, buning aksi ham bor. Fonetik o'zgarish bilan bog'langan soddalanish natijasida analogiyaning ishtiroki bilan bu juft so'zdan sekinasiga ravishi tug'ilgan: sekin-asta — sekinasiga), yeyish-ichish, qovun-uzum va b. Bu hol qismlari asosiy qoidaga muvofiq holda o'rinishgan juft so'zlarda ham rol o'ynagan bo'lishi mumkin (chol-kampir, tinib-tinchib, avval-

keyin, oldin-ketin, birin-ketin kabi). Yana: oy-kun, savdo-sotiq kabi juftlarda «umum-qism» (umum tushunchaning bir qismini bildiradigan komponentning keyin kelishi: «keng-tor») tarzidagi holat ham ahamiyatga ega bo'la oladi. 2. Ahamiyati bir xil yoki shunga yaqin bo'lganda, tartib juda ham bog'liq bo'lmaydi: ba'zan inversiya bilan ham qo'llana beradi: go'sht-yog' va yog'-go'sht, xas-cho'p va cho'p-xas, qo'l-oyoq va oyoq-qo'l. 3. Undosh tovush bilan boshlanadigan elementning avval kelishi ham uchrab qoladi: ko'ylak-ishton, qovun-uzum kabi. 4. Tartibda har xillikning bo'lishi ba'zan dialektal xususiyatlar, sheva farqlari bilan bog'langan bo'ladi: qaynona-kelin (Toshkent) va kelin-qaynona (Farg'ona). 5. Aniq tushuniladigan (ma'nosi aniq bo'lgan) so'z tushunilmaydigan so'zdan yoki mustaqil qo'llanadigan so'z bunday qo'llana olmaydigan so'zdan yoki ko'p qo'llanadigan so'z oz qo'llanadigan, kam qo'llanadigan, aniq tushunilmaydigan so'zdan avval keladi: ko'cha-kuy, temir-tersak, katta-kalon. O't-o'lan jufti bugungi tilda shu tipga to'g'ri keladi (o'lan hozirgi zamon adabiy tilida o't ma'nosida qo'llanmaydi), lekin uning elementlari aslida bo'g'in soni kam bo'lgan qismning avval kelishi holatiga ko'ra o'rinlashgan: eski o'zbek tilida ho'l, nam so'zi ma'nosida ul so'zi, o't ma'nosida o'lan so'zi ishlatiladi, demak o't-o'lan aslida sinonimik xarakterdagi juft so'zdir (o'lan: o'l + ang). 6. Sonlarning juftlashishi ayrim xususiyatga ega: ular izchillik bilan, kichiqdan kattaga — pastdan yuqoriga borish yo'li bilan juftlashib, qismlar shu asosda o'rinlashadi: a) yakka sonlarning birikishi: birdan o'ngacha bo'lgan sonlar ketma-ket, oradagi sonni qoldirmay — «sakrab o'tmay» juftlashadi (bir-ikki, uch-to'rt, yetti-sakkiz), lekin besh va o'n (ikki besh) ham juftlasha oladi: besh-o'n kishi (kamaytirib ko'rsatish), past qarash kabi ma'nolarni berish uchun besh-to'rt kabi shaklda ishlatish ham uchraydi: dialektal shakl: b) yirik bo'laklarning birikishi (o'n-o'n besh, yigirma-o'ttiz, qirq-ellik, ikki yuz-uch yuz kabi): birinchi o'nlikda uning yarmi (besh) bilan birikish (o'n-o'n besh) odatdagi xol, lekin dastlabki ikki o'nlikning qo'shilishi (o'n-yigirma) juda kam uchraydi; undan keyingilari o'nliklar tartibida, birdan o'ngacha bo'lgan sonlar tartibiga o'xshash, qo'shila boradi (o'ttiz-qirq sakson-to'qson kabi);

undan keyin yuz-ikki yuz, uch yuz-to'rt yuz va b. Keyingi holatda yuz, ming kabi so'zlar har bir qism bilan birga takrorlanib keladi (besh yuz-olti yuz qiyoslang: besh-olti yuz), shuningdek bunday o'rinlarda ular qo'llanmay qoladi ham (besh-olti ming, qiyoslang: besh ming-olti ming). Bunday ayrimliklar ixchamlikka intilish (juft so'z — bir so'z: uning «kengayishi» ko'p jihatdan noqulay), stilistik talab kabi hodisalar bilan bog'liq (12:74).

Juft so'zlardagi qismlarning o'zaro fonetik munosabatida shunday hodisani ko'ramiz: ularning bir turida bir-biriga ohangdosh bo'lish—qofiyalanish an'anasi bor. Buning natijasida qismlarda fonetik o'zgarish yuz berishi ham mumkin: bir elementning fonetik o'zgarishi fonetik holatga moslashishdan tug'iladi. Masalan, eski-tuski (eski-to'zgi: ikkinchi qism aslida to'z fe'li bilan bog'liq), bosar-tusar (bosar-turar: u bosar-tusarini bilmay qoldi), yasanib-tusanib: yasan-tusan (yasan-tuzan: u yoq-bu yog'ini tuzatmoq; bejamoq), telik-teshik (asli: tilik-teshik)i unlisi e unlisiga o'tgan (qumliy-shumliy, quvlik-shumlik: quv-ayyor, ba'zan shumliy-qumliy shaklida ham qo'llanadi). Bunday fonetik yaqinlik o'zgarish ma'lum o'rinlardagina uchraydi (qiyoslang: og'iz-burun, opa-singil, quloq-chakka, sigir-buzoq kabi juftlashishlarda boshqa holni ko'ramiz). Bu hodisa ularda fonetik butunlik bir so'z sifatida bo'lish xususiyatini kuchaytiradi. Fonetik o'zgarish, odatda, ikkinchi qismning birinchisiga moslashishi tusida bo'ladi. Bu o'zgarish natijasida shu elementning (o'zgargan elementning) mustaqil so'zlik holati xiralashadi, ba'zan sezilmas holga keladi — soddalanish yuz beradi. Juft so'zning qismlari orasida bundan boshqacha fonetik o'zgarishlar ham uchraydi: qisqarishga intilish, chegara tovushlarning o'zaro ta'siri (san-man—sam-man: ular qizishib ketib, san-manga borishdi), bo'g'in tuzilishidagi o'zgarish (qo'l-oyoq: qo'-lo-yoq) kabi.

Tilning umumiy rivojlanishini juft so'zlarda ham ko'ramiz: general-mayor, maktab-internat, vagon-restoran(lug'at), harbiy-dengiz (floti) kabi juftlar tilni boyituvchi yangi hodisalar bo'lib, bular rus tilidan olingan (general-mayor kabi). Rus tilidagi bunday juftlar turli tipda bo'lib, ular o'zbek tilida ham shu holni

saqlaydi; ba'zan kompleksning semantik xususiyatiga mos ravishda aniqlovchi + aniqlanmish modelida beriladi. Masalan, samolyot-bombardirovshik: bombardimonchi samolyot.

Har bir so'zning ma'nosi asosida borliq'dagi ma'lum bir predmet, voq'yea yoki hodisa yotadi. Buni bilishda har bir shaxs o'zining ko'p yillik hayotiy tajribasiga tayanadi. Balli Sh: «Sezish tajribasi orq'ali biz predmetni his etsak, idrok etish orq'ali uning nomini belgilaymiz», - deganida haq'li edi(30:103).

## **2.2. So'z tabiatining murakkabligi tahlili**

So'z tabiatining murakkabligi yana shunda ko'rinadiki, u tilning ko'p funksiyali kategoriyasiga kiradi. Shuning uchun u yoki bu so'zning ma'no xususiyatlari to'g'risida gapirar ekanmiz, uning funktsiya nuq'tai nazaridan ham murakkab xarakterga ega ekanligini unutmasligimiz kerak. So'z, fonema va morfemalardan farq'li o'laroq', nafaq'at sintagmatik q'ator zanjirida, balki paradigmatic q'ator doirasida ham o'z ma'nosiga va semantik vazniga egadir. Biroq' paradigmatic q'ator elementlari doirasida uning ma'nosi va funksiyalari hali umumiylik og'ushida bo'ladi.

So'z paradigmatic q'atordan sintagmatik q'atorga o'tgach, shu q'atorning ichki q'onun-q'oidalariga bo'ysungani holda, yangicha mazmun va funksiyalar kashf eta boshlaydi. Endi u, sintaktik aloq'alar maskani bo'lgan ma'lum bir gapning ajralmas tarkibiy bo'lagi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, gap tarkibida q'o'llanilayotgan so'z o'zi uchun belgilangan semantik vazifani bajaribgina q'olmay, o'zi tegishli bo'lgan morfologik kategoriya tasarrufidan chiq'ib, boshq'a bir morfologik kategoriya doirasidagi so'zlar vazifasini bajarishi ham mumkin. Masalan, sifatning asosiy vazifasi otning belgisini aniq'lash bo'lsa, otning bosh vazifasi, o'z navbatida, predmetning nomini atash orq'ali belgilanadi. Ammo ko'p paytlarda otning fe'l, sifat funksiyasida kelishini ham kuzatamiz. Ana shuning o'zi ham so'z tabiatining

g'oyat murakkabligidan dalolat beradi. Fikrimizning yanada aniq'roq' bo'lishi uchun q'uyidagi misollar tahliliga to'xtab o'taylik:

**1.«Siymonko'prik»dan o'tishning o'zi bir tomosha** /O'.Hoshimov. *Dunyoning ishlari*, 77/.

**2.Ammo o'zi yaxshi xotin** /O'.Hoshimov. *Dunyoning ishlari*, 119/.

**4.Bog'-bo'ston deb mana shu yerni aytsa bo'ladi** /T.Po'lat.Ichkuyov, 12/.

**5.To'rt xotin o'tirishib olma choy ichishdi** /O'.Hoshimov.*Dunyoning ishlari*, 50/.

Ko'rinadiki, birinchi gapdagi **tomosha** so'zi o'zining asosiy sintaktik funksiyasidan chiq'ib, fe'l funksiyasida, ya'ni kesim vazifasida q'o'llanilmoq'da. Ikkinchi gapdagi **xotin** so'zi ham shu singari funksiyada ishlatilgan. Qolgan har uchala misoldagi **kolxoz**, **bog'**, **olma** so'zlari sifat vazifasida q'o'llanib, **choyxona**, **bo'ston**, **choy** so'zlarini aniq'lab kelmoq'da. Boshq'acha aytganda, ayni paytda otning o'z funksiyasiga ko'ra fe'l va sifat kategoriyalariga ko'chirilganligini ko'ramiz.Taniqli olim Sh.Balli ta'limotida bunday vaziyat funksional transpozisiya hodisasi deb nomlanadi(30:96).

Shuni alohida q'ayd etish lozimki, til unsurlarining bir morfologik kategoriyadan ikkinchisiga o'tishi va u o'sha kategoriyaga mansub unsurlarning funksiyalarini bajarishi faq'at sintagmatik q'atordagina yuz beradi. Paradigmatik q'atorda esa ular o'zlarining tub morfologik mazmunini saq'lab q'oladi. Shu bois tilning har bir birligi mazmuni doirasining kengligini nutq' jarayonida, ya'ni sintagmatik q'atorda u ikkinchi birlik bilan munosabatga kirishgandagina aniq'roq' his etish mumkin. Chunki so'z sintagmatik q'ator zanjirida, o'zining tub leksik ma'nosidan tashq'ari, boshq'a ma'nolarda ham q'o'llanila oladi. M.M.Makovskiy ta'kidlaganidek, bu jarayonda til sistemasining ayrim q'ismlarida, va hatto, butun bir sistema doirasida ham til elementlarining guruhlariga va yana q'ayta guruhlariga bo'linishi sabablari hamda uning oq'ibatini o'rganishda, sistema tarkibiga nimanidir q'o'shish yoki undan nimanidir olib tashlash va natijada sistema hajmining kengayishi yoki torayishi sabablarini o'rganishda ham til vositalarini

erkin kategoriyalar tarzida talq'in etadigan har bir tadq'iq'ot muhim ahamiyat kasb etadi(31:147).

Darhaq'iq'at, shunday. Chunki so'zning q'aysi ma'noda va q'anday funksiyada ekanligini biz faq'atgina nutq' jarayonida u konkret q'o'llanilgandagina belgilay olamiz. Shu sababdan ham mashhur tilshunos olim A. Meye alohida olingan so'zning o'ta serma'no ekanligini va ularni hatto sanab ham bo'lmasligini e'tiborga olib: «So'z ma'nosizdir. Ma'no faq'at u aniq' q'o'llanilgandagina hosil bo'ladi» (17:58).

Xullas, til tizimining bu yo'sindagi tahlili asosida tilni dinamik hodisa sifatida talqin qilish harakati yotadi. Til tizimi tahliliga bunday yondashuv ushbu tizimning ma'lum bosqichdagi taraqqiyot holatini o'rganish uchun muhimdir.

## UMUMIY XULOSALAR

Soʻz tilimiz sistemasining eng muhim va markaziy birligi ekanligi shubhasizdir. Uning til birliklarining boshqalaridan farqli jihati birinchi navbatda integrativ xususiyatida koʻrinadi. Bu juda muhimdir. Chunki u fonema, morfema kabi til birliklarining qoʻllanish obyekti sanaladi. Biroq bu oʻrinda shuni ham aytish kerakki, soʻz muammosi tilshunoslar uchun antik tilshunoslik davridan boshlab jumboqli boʻlib keldi va bugungi tilshunosligimizda ham shunday boʻlib qolmoqda.

Soʻz grammatik qurilishning bazasi boʻlib, u tilning leksikada ham, grammatikada ham eng zarur asosiy birligidir.

Soʻz obyektiv borliqdagi predmet yo hodisalar haqidagi tushunchaning tovush vositasi bilan ifodalanishidir; bu tushuncha predmet yo hodisaning ongda aks etishidir.

Soʻz maʼnosi butun bir sistema boʻlib, u qoʻshimcha maʼnolarni ham, emosional-stilistik jilolarni ham oʻz ichiga oladi. Bu hodisa soʻzning maʼno tuzilishi deyiladi. Soʻzning maʼno tuzilishi shu soʻz ifodalaydigan maʼnolarning yigʻindisi, soʻzning butun maʼno sistemasidir.

Soʻzning yaxlit strukturaga, ayrimlikka ega ekanligi, gapning biror boʻlagi boʻlib kelishi uning boshqa elementlardan, masalan, morfemadan farq qilishini koʻrsatib turadi (morfema soʻz ichida yashaydi, soʻz esa — gap ichida); u oʻz ayrim xususiyatlari, masalan, oʻziga xos tarzda shaklanishi bilan soʻz birikmasidan ham farqlanadi.

Har bir soʻzning maʼnosi asosida borliqʼdagi maʼlum bir predmet, voqʼyea yoki hodisa yotadi. Buni bilishda har bir shaxs oʻzining koʻp yillik hayotiy tajribasiga tayanadi. Mashhur nemis faylasufi L.Feyerbax: «Sezish tajribasi orqʼali biz predmetni his etsak, idrok etish orqʼali uning nomini belgilaymiz», - deganida haqʼli edi.

N.Turniyozov va X.Xayrullayevlar quyidagilarni qayd etadilar: „Ravshanki, soʻz tuzilishi komponentlari (morfemalar) sintaktik aloqalarini gap

komponentlarining o'zaro munosabati bilan to'lig'icha analogik qoidalarga bo'ysunadi deb bo'lmaydi. Chunki gap til birliklari ierarxik munosabatining yuqori pog'onasini tashkil etadi. Gap tarkibidagi so'zlar munosabati har doim dinamik harakterlidir. So'z tuzilishi komponentlari sintaktik muno-sabati esa statik maqomga ega. Biroq ularning shakllanishi prinsiplarida mushtaraklik mavjud .

So'z va uning tuzilishi bilan bog'liq sintaktik muammolar ham tadqiqotlarimiz kun tartibidan o'rin ola boshladi va buning natijasi o'laroq, „so'z sintaksisi” tushunchasi vujudga keldi.

So'z sintaksisi tushunchasining ilmiy asoslanishi, asosan, yasama so'zlar materialida o'z ifodasini topdi. Chunki yasama so'zlar leksik derivatsiya mahsuli bo'lib, bunda ularning ichki tuzilishi muhim omil sifatida xizmat qiladi. Sodda qilib aytganda, yasama so'zning ichki tuzilishi uning morfologik jihatdan tuzilishini taqozo etadi



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **1. Prezident Qarorlari**

1. Кадрлар таёрлаш миллий дастури. – Тошкент: Шарқ, 1997. –34 б.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentni Qarori. “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. Toshkent. – 10.12.2012.

### **2.I.A. Karimov asarlari ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent, O'zbekiston 2008 .-B.325.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI - asrga intilmoqda .-Toshkent, O'zbekiston 1999..-B.123.
3. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li .-Toshkent, O'zbekiston. 1992.-B.265.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent, O'zbekiston .1988. B.231.

### **3. Ilmiy adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Barbara M.H. A History of English. – London: Methuan, 2007. – P.249-250.
2. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., - С.76.
3. Чейф У.Л. Значение и структура языка. – М., 1975.-С.146.
4. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. – М., 1974.-С.204.
5. Левковская К.А. Теория слова, принципи её построения и аспекты изучения лексического материала. –М., 1962. .-С.184.
6. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент, 1975.168 б.
7. Неъматов Ҳ., Расулов И. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент, 1995.214 б.
8. Дрошевски В. Элементи лексикологии и семиотике. – М., 1973. – С. 215.
9. Кубрякова Е. Теория номинации и словообразование// Яиковая номинация.-М.,1977.-С.159.
10. Храковский В.С. Трансформация и деривация// Проблемы структурной лингвистики-1972. –М., 1973.-С243.
11. Кондаков Н.И. Логический словарь- справочник.-М.,1975.-С.135.

12. Турниёзов Н., Хайруллаев Х. Синтактик муносабат ва синтактик структуралар//Структур синтактик асослари.- Тошкент, 2009.165 б
13. Маковский М.М.Проблемы лингвистической комбинаторики // Вопросы языкознания, 1985. №3. – С. 43.
14. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М., 1955. –С.130-144.
15. Дрошевски В. Элементы лексикологии и семиотике. – М., 1973. – С. 215.
16. Пешковский А.М. Сборник статей. – Л., 1925. С. 122.
17. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. – М., 1974-С. 241.
18. Левковская К.А. Теория слова, принципі её построения и аспекты изучения лексического материала. –М., 1962.-С.183.
19. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент, 1975. 185 б.
20. Нейматов Ҳ., Расулов И. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент, 1995.164 б.
21. Дрошевски В. Элементы лексикологии и семиотике. – М., 1973. – С. 215.
22. Литвин Ф.А. Многозначность слова в языке и речи. – М., 1984.-С. 168.
23. Рустамов А. Сўз хусусида сўз.- Т.:»Ёш гвардия», 1987,-23 б.
24. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика.- Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» нашриёти,- 2008, 300 б.
25. Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С. Тил Қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси.- Т.: «Фан» нашриёти,- 2007, 273 б.
26. Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М., 1965. – С.9.
27. Дрошевский В. Элементы лексикологии и семиотики. – М., 1973. – С. 168.
28. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М., 1955. –С. 130-144.
29. Маковский М. М. Проблемы лингвистической комбинаторики // Вопросы языкознания, 1985. №3. – С. 43.

#### **4. Internetdan ko‘rilgan adabiyotlar:**

- 1.[www.lingvotech.com](http://www.lingvotech.com) sinotn.

2.[www.classes.ru/grammar/168.../source/...](http://www.classes.ru/grammar/168.../source/...)

3.[www.glogol.website.ts/](http://www.glogol.website.ts/)

4.[www.rbls.org/](http://www.rbls.org/) [glogol.com](http://glogol.com).

5.[www.robteks.com/ domain information/com. glogol.com/pi/about.html](http://www.robteks.com/domain%20information/com.glogol.com/pi/about.html).